


Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 15-dekabr, chorshanba № 50 (9375)

Xalq ziyolilari gazetasi



**QIZIL, SARIQ, YASHIL...
muammoga yechim bo'la olmaydi!**

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



O'quvchilarning o'qimagani, tarbiyasizligi yoki nojo'ya ishlar qilgani uchun qachongacha o'qituvchini aybdor qilamiz? "Ikki" qo'yish mumkin emas, sinfdan qoldirish mumkin emas, hatto qattiq gapirib ham bo'lmasa... "Qo'yib berasan-da o'sha uchingni", deb o'qituvchini mensimaydigan, umuman o'qimaydigan bolalar ko'payib bormoqda. Maktablarda yomon xulqli o'quvchilar ustidan nazorat qiladigan inspeksiya tashkil qilish kerak.


Nigora SHARIPOVA

Maxsus maktabda texnologiya fanidan dars beraman. Mashg'ulotlarda qizlar tikish, pazandachilik, o'g'il bolalar esa duradgorlik, chilangarlik kabi ishlar bilan shug'ullanadi. Tabiiyki, dars amaliy ekan, xonada tartib bo'lmaydi. Chunki unda bolalar ish o'rganadi. Ammo ko'pincha darsga o'rinbosarlar kirib kelib, xonangiz toza tursin, tekshiruvchi kelishi mumkin, deb bezor qilishadi. Ba'zan "faqat shu tekshiruvchilar uchun ishlayapmizmi?" deb jahlim chiqadi. Texnologiya darsini tekshirishga kirgan mutaxassis, nahotki, amaliy dars qanday bo'lishini bilmasa? Yoki ularni aqli zaif o'quvchilarning hunar o'rganayotgani quvontirmay, xonaning ozodaligiga qiziqtirmikan?!

Zahro RAHIMOVA

Targ'ibotchimiz o'zi ishlaydigan xususiy gazeta uchun, ta'lim tizimi batafsil tahlil qilingan maqola yozib berishimni so'radi. Anchagina material to'pladim. Ammo meni bir savol qiynayapti... Ma'lumki, OTMlarga qabul uchun katta saralash bo'ladi. O'quvchilar repetitorda o'qiydimi yoki maktabda yaxshi bilim oladimi, har holda yuqori ball bilan o'qishga kirishadi. Kamida 60–80 foiz OTMlarda tanlov ancha yuqori bo'ladi. Ammo bitirib, oliy ma'lumot olganlarning ko'pchiligi hatto ariza yozishga qiynaladi. Xo'sh bunga maktab aybdormi yoki OTM?

Normamat ESHONQULOV



Repetitor o'qituvchi emasmi?!

3-bet

2-bet

Milliy o'quv dasturining
afzalliklari

O'QITUVCHIning
malaka oshirishi
O'QUVCHIlarning
ta'limiga ta'sir qiladi

O'tish ballarining
ta'lim yo'nalishlari
bo'yicha tahlili

4-bet

5-bet

8-9-betlar

Nuqtayi nazar

Keyingi paytlar repetitorlar haqida juda ko'p fikrlarni eshitib, o'qiyapman. Eng xafa bo'lganim, bu fikrlar ko'pchiligi salbiy ruhda va hamkasblar tomonidan aytilyapti. Repetitor kim, u o'qituvchimi, yoki o'zidan-o'zi bir sinf bolani to'plab ma'ruza qilib yuribdimi?!

Repetitor o'qituvchi emasmi?!

Avvalo, repetitor maktab muallimi kabi o'qituvchilikning mashaqqati, qiyinchiligini boshidan o'tkazyapti. Men ham repetitorlik qilaman. Maktabda ham, litseyda ham, kollejda ham ishlaganman. Ayni paytda, oliy ta'limda ham imkoniyatimni sinovdan o'tkazyapman (amaliyotchi magistr sifatida). Ijtimoiy tarmoqlarda yozilayotgan fikrlarni o'qib, ularni tahlil qilib ko'rdim:

1. "Repetitor bir sinfda 10–20 nafar o'quvchini o'qitadi, maktablarda esa bir sinfda o'quvchi soni 30–40 nafar atrofida". Avvalo, hamma maktablarda ham sinfdagi o'quvchi soni bunday emas. Shunday maktablar borki, sinfda 20, hatto 15 nafar o'quvchi o'qiydi. O'zimdagi misol, repetitor ham bir guruhda 50 nafargacha o'quvchi o'qitadi. Darsni to'g'ri tashkil qilsa, bu muammoni maktabda ham hal qilish mumkin (maktabda ishlagan vaqtim bir sinfda 38 o'quvchini o'qitganman). Xo'sh, sifat qanday bo'ladi? Sifat ham sizning mahoratingizga bog'liq. Masalan, maktabga o'quvchilar o'qish va kerakli bilim olish uchun keladi. Oliy o'quv yurtiga kirolmasa, hech kim maktab o'qituvchisini ayblamaydi. Agar repetitorga borgan o'quvchi oliy o'quv yurtiga kira olmasa, repetitori "bo'lmaydi", deb baholalanadi.

2. "O'qituvchi keraksiz hujjatlar bilan band bo'ladi. Repetitor hech qanday hujjat tayyorlamaydi". Kim aytadi repetitor hech qanday hujjat tayyorlamaydi deb? O'zimdagi misol, har bir darsim uchun alohida test tuzaman. Bu yil tuzgan testdan keyingi yil foydalanib bo'lmaydi. Hatto ikki guruhga saviyasiga qarab ikki xil, o'tilgan mavzuga qarab testlar tuzaman. O'quvchi saviyasiga qarab qo'llanma, kitob, ma'lumotnoma, tezkor savol-javoblar tayyorlayman. Istalgan repetitordan so'rang, darsga quppa-quuruq kirarmikan. Maktablarda hujjatlar qisqartirildi, lekin natija qani?!

3. "O'qituvchi kundalik.com to'ldiradi. Repetitor bunday keraksiz ishga vaqt sarflamaydi". Avval-boshdan kundalik.com degan narsani yoqlamaganman. Lekin repetitor ham dars boshida davomat oladi, kelmagan o'quvchini surishtiradi, o'qimay kelgan o'quvchining ota-onasiga telefon qiladi, ogohlantiradi. Shu o'quvchining darsdan keyin uyiga borishi, vaqtini bekor o'tkazmasligini nazorat qiladi. Haftalik, oylik test natijalarini jadval asosida foizlarda hisoblab, har hafta ota-onalar telegram kanaliga joylab boramiz. Natijasi past o'quvchi bilan darsdan keyin, belgilangan kundan tashqari alohida ishlaymiz.

4. "Maktab o'qituvchilarining xarajati katta. Repetitor jamoat ishlari uchun hech qanday chiqim qilmaydi". Bitta o'zim bir oyda qog'oz va rang uchun 400.000 so'mdan oshiq xarajat qilaman (o'quvchisi ko'p repetitorlar bundan ham ko'p sarflaydi).

5. "Nima bo'пти, repetitor katta oylik oladi, maktabda ham katta oylik bersa, ishlardik". Kechirasiz-ku, repetitor tayyor 50 nafar bolaga dars boshlamaydi. Sizning ko'zingizga ko'p bo'lib ko'rinayotgan yuzlab bolalar yillar davomida, ko'rsatgan natijasiga qarab yig'ilgan. Repetitorlik faoliyatimni 3 nafar bolaga bepul dars o'tishdan boshlaganman. Va hali hamon bepul dars olayotgan o'quvchilarim bor. Maktabda tayyor sinfga darsga kiramiz. Qanday dars o'tishimizdan qat'i nazar, belgilangan oylikni olamiz. Agar natijangiz yaxshi bo'lsa, ustama, rag'bat degan narsalar bor. Bir oyda 1000 dollar bo'lmasa ham 600 dollar (dollariga hisoblaganda) oylik olayotgan o'qituvchilarni ko'rganman. Bizning mehnatimiz orden va medallar bilan taqdirlanmaydi. Toifamiz uchun oyligimizga qo'shimlaydi. Har kuni soat 14:00 dan 20:00 gacha dars o'taman. Soat hisobida 6 soat, dars hisobida necha soatga to'g'ri keladi hisoblab ko'ring. Ertalab soat 05:00 ga dars qo'ygan vaqtlarim bo'lgan. Repetitor uchun dars qoldirish

mumkin emas, kasalmisan, to'yami, ta'ziyami, tug'ilgan kunmi, o'quvchidan uzr so'rab ruxsat olasan. Maktab direktoridan ruxsat so'rasangiz, iltimos qilassiz, o'mingizga boshqa o'qituvchi dars o'tib turadi. Repetitor yuzta va undan oshiq bolaning hammasiga, ota-onasiga tushuntirishi kerak (orada pul beryapman deb minnat

qiladiganlari ham topiladi). Qoldirilgan dars o'tib beriladi. Shunday o'qituvchilarni bilaman, darsiga kirmaydi, kirsam ham oldi-qochdi gaplar bilan bolani aldaydi. Axir, o'qituvchi ham 45 minut darsi uchun pul oladi-ku. Repetitordan farqi davlat to'laydi pulni. Repetitor raqobatdan qo'rqmaydi. Zo'r repetitor raqobatda sinmaydi. Maktablarda raqobat yo'q. Raqobat bo'lsa ham dars soati ko'p-kamligida gap.

6. "Repetitor shu fanga qiziqqan o'quvchiga dars o'tadi. Maktabda bir sinfda har xil fanga qiziquvchilar o'qiydi". Bu nimadan dalolat? Ta'lim tizimini o'zgartirish vaqti yetmadimikan?! Al-misoqdan qolgan tartib-qoidalaridan voz kechish vaqti yetmadimikan?! Qachon biz o'quvchiga qiziqqan fanini o'rgatish tizimiga o'tamiz?!

Lekin repetitor guruhida ham hamma o'quvchining tushunish va o'zlashtirish darajasi, hatto qiziqishi ham (kimlardir ota-onasining turtkilashi bilan, yo ota-onasining tanlovi bilan kelgan) bir xil emas. Repetitor ham har bir bola bilan alohida ishlaydi.

7. Repetitor ham siz o'ylaganchalik erkin emas. Maktabni vazirlik, boshqarmalar boshqarsa, repetitor uchun boshqaruvchi ota-onasini kamchilik va qilingan xato uchun tekshiruvchi, yo direktordan bitta tushuntirish xati bilan qutulasiz, nari borsa, oyligingizdan jarima to'larsiz. Biroq repetitorga umid bilan kelgan o'quvchi va pul to'lagan ota-onadan bu bilan qutulib bo'lmaydi. Xalq nazorati kuchli nazoratdir!

Xullas, gapirsam gap ko'p. Aytmoqchi bo'lganim, hamma sohada ham fidoyilik birinchi o'rinda turadi. Va o'qituvchi (agar qarshi bo'lmasangiz, repetitor ham) hamisha fidoyi kasb egasi. Iltimos, repetitorni "o'gay" bilmang.

Repetitorlar eskirgan tizimga qarshi isyon qilgan O'QITUVCHILARDIR!

Dilobar BERDIYEVA

Ma'lumki, 2020-yildan maktablarning ta'lim sifatiga qarab to'q qizil, och qizil, sariq va yashil rangda toifalarni yo'lga qo'yildi. Bunda birorta bitiruvchisi OTMga kirmagan maktablar to'q qizil, 10 foizgacha kirganlari och qizil, 30 foizgacha kirgani sariq va o'quvchisi OTMga kirish ko'rsatkichi 30 foizdan oshgan maktablar esa yashil rangda belgilandi.

Mazkur ko'rsatkichlar orqali "sariq" va "qizil" toifadagi maktablarda ta'lim sifati, samaradorligi oshirilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Xo'sh, umumta'lim maktablarini bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi bilan toifalashtirish qanchalik to'g'ri?

Keling, masalani o'rganishni dunyoning eng rivojlangan davlati – AQSH tajribasini ko'rib chiqishdan boshlaylik. 2002-yil 8-yanvarda AQSHdagi ikki tiyaning qo'llab-quvvatlashi bilan Jorj Bush tomonidan imzolalanib, amaliyotga joriy qilingan "No child left behind" (Hech bir bola e'tiborsiz qolmaydi) loyihasi mohiyatan maktablarning reyting asosida baholanishiga asoslangan.

Unga ko'ra, har bir bolaga alohida e'tibor qaratiladi. Ya'ni, moliyaviy jihatdan kam ta'minlangan, nogiron, immigrat, past o'zlashtiruvchi bolalar tengdoshlari erishayotgan yutuqlarni qo'lga kiritishi talab qilindi. Maktablarning ko'rsatkichlariga federal shtatlar javobgarligi belgilandi. Ya'ni federal shtatlarga ta'limni rivojlantirish uchun alohida pul beradigan va natija talab qiladigan bo'ldi. Asosan, matematika, o'qish, yozishga e'tibor qaratildi. Shuningdek, o'qituvchilar malakasini aniqlash standartlari belgilandi, professionalarni jalb qilish boshlandi. Baholar bo'yicha ro'yxatning eng quyi qismidagi maktab o'qituvchilari uchun kurslar ham nazarda tutilgan. Past o'zlashtiruvchilar ajratilib alohida qo'shimcha o'qitildi. Ushbu akt bir necha marta qayta o'zgartirilgan bo'lsa ham mohiyati deyarli o'zgarmadi.

Umuman olganda, bu g'oya nazariy jihatdan yomon emas edi: o'zlashtirish past bolalarni aniqlash va "raqobatdosh maktablar" mamlakatdagi ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ko'zlangan. Biroq amalda dasturning ko'plab kamchiliklari aniqlandi. Masalan, bunda asosiy yuk maktablarga tushdi. Natijalarning yomonligi maktablar jazolanishi, o'qituvchilarni almashtirish, direktorni ishdan olish, hatto maktabni tarqatib yuborishgacha olib boradi. Albatta, AQSH qonunchiligiga ko'ra shtatlar bu qonunni qabul qilishi, shartlariga rozi bo'lishi majburiy emasdi, lekin maktablari talabalarni bajarmagan shtatlar davlat tomonidan ajratiladigan mablag'ni kamroq o'lardi yoki butunlay berilmasdi.

Shunday qilib, maktablar ko'rsatkichi yuqori bo'lishi va raqobatbardoshlikka erishish uchun faqat testlarga tayyorlana boshladi. Yuqori guruhlarda ushbu jarayon jadallashib ketdi, ammo aksariyat o'qituvchilar o'quv jarayoni

Ta'kid

Tayyor o'quvchi

Bugungi kunda deyarli barcha maktablarda bitiruvchi sinflarning davomati qoniqarli ahvolda emas. Buning asosiy sababi ko'pchilik o'quvchilar ma'lum bir fanlardan repetitorga borishadi. Aksariyat ota-onalarning fikricha, repetitorda fanlar maktabdagidan yaxshiroq o'qitilgan ekan.

Lekin haqli savol tug'iladi: hech solishtirib ko'rganmisiz? Maktabdagi talab, muhit, sharoit o'quv markazlariniki bilan bir xilmi? O'quv markazlarining "Bizda bilim yaxshiroq" shiori ostida o'quvchini jalb qilayotganini ko'rib xafa bo'lib ketasan kishi. Axir o'quv markazlaridagi o'qituvchilar maktabdagi kabi sharoitda bola bilan shug'ullanishmaydi-ku. Sizning o'quv markazingizga borayotgan tayyor o'quvchining savodini kim chiqardi? Kim karra jadvalni o'rgatdi? Kim o'qish, yozishni o'rgatdi? Maktabdagi ustozlari emasmi?! O'qituvchilarning yillar mobaynida sabrtoqat bilan qilgan mehnatlari bugun, nazarimda, biroq e'tibordan chetda qolib ketayotgandek.

O'quv markazlariga shu fanga qiziqishi bor o'quvchilar boradi. O'qituvchi esa sinfda shu fanga qiziqadigan, qiziqmaydigan, yaxshi o'zlashtirilmaydigan uch turdagi o'quvchi bilan ishlaydi. Endi bir o'yab ko'ring-a, kimda natija yaxshiroq bo'ladi?

Bugun barcha abituriyentlarni "Noldan boshlab, haqiqatan ham, ingliz tili, matematika va boshqa fanlarga o'rgatamiz" deb bong urayotgan qaysi o'quv markazida o'quvchiga noldan boshlab raqamlarni tanishtirish-u karra yodlashni, alifboni-yu bo'g'in ko'chirishni o'rgatishayotgan ekan? Bu bilimlarning barchasini o'quvchi maktabda olmaganmi? O'quv markazlarida o'quvchilar kichik guruhlarda ishlagani uchun ham natija ancha yaxshi. Maktabdagi o'qituvchi esa 30–35 o'quvchi bilan ishlaydi.

Endi o'quv markazlarining ish rejimiga qaraylik. Aksariyati ertalab 9:00 dan ish boshlaydi. Bu vaqtda bitiruvchi sinflarning 2-soati boshlangan bo'ladi. Bu borada o'quv markazlari dars jadvalini bitiruvchi sinflarning maktabdagi dars jadvallarini inobatga olgan holda tuzishsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan, maktabda o'qimaydigan abituriyentlar uchun kunduzgi, maktab o'quvchilari uchun esa tushlikdan keyin o'quv kurslari tashkil etilish va buni qat'iy nazoratga olishsa, maktabda davomat o'quv markazlariga darslar hisobidan borayotgan o'quvchilar hisobiga pasayib ketmas edi.

Maktabning ham, o'quv markazlarining ham maqsadlari bir – o'quvchiga bilim berish. Mana shu maqsad yo'lida birlashib, ish rejali va to'g'ri tashkil etilsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Dilnoza NURMATOVA,
Yashnobod tumanidagi
216-maktab o'qituvchisi

Dolzarb mavzu

Qizil, sariq, yashil... muammoga yechim bo'la olmaydi!

ko'p jihatdan bolaning aqliy rivojlanishiga emas, balki testlarni muvaffaqiyatli yechishga qaratilganligidan norozi edi. O'qituvchilarni tayinlash bo'yicha yuqori standartlar ko'p hollarda o'qituvchilar yetishmayotgan haqiqiy vaziyatga (ayniqsa kichik shaharlarda) to'g'ri kelmadi. Natijada pedagogik kadrlarning keskin tanqisligi yuzaga keldi. Shuningdek, kambag'al qatlam o'qiydigan, o'quvchisi kam, moliyaviy ahvoli og'ir maktablar endi yanada qiyinlashib boshladi. Ular endi bepul repetitorlik guruhlariga o'chib boshladi. Ya'ni o'qituvchilar qo'shimcha ishga jalb qilindi, lekin buning uchun haq olmasdi.

Yaxshi o'zlashtirib turgan o'quvchilar yaxshiroq maktablarga keta boshladi, bu esa maktabni yanada qiyin ahvolda solib qo'ydi. Chunki reytingda a'lochi o'quvchining natijasi yomon o'qiydigan o'quvchilikiga qo'shilib o'rtacha hisob chiqarilardi. Bu yaxshi o'qiydiganlar uchun adolatsizlik edi. Mana shunday qator kamchiliklar sabab, 2015-yilga kelib, loyiha partiyalar tomonidan tanqidga uchradi va "Hech bir bola e'tiborsiz qolmaydi" loyihasi o'z ahamiyatini yo'qotdi, o'rni boshqasi tavsiya etildi.

AQSH ta'limida yo'l qo'yg'an ushbu xatosining salbiy oqibatlari bilan mana bir necha yildirki kurashib kelmoqda. Masalan, PISAning so'nggi natijalariga ko'ra, AQSH ta'limi sifati bo'yicha 70 foiz bitiruvchilari oliy ta'lim muassasasiga kirganini hisobga olgan holda ikkinchi o'rinda turganiga qaramay, matematika va tabiiy fanlardan reytingda ortda qolyapti. The New York Timesda chop etilgan "It Just Isn't Working": PISA Test Scores Cast Doubt on U.S. Education Efforts" (Tizim shuncha-ki ishlamayapti: PISA imtihon natijalari AQSHning ta'limdagi islohotlariga shubha uyg'otdi) nomli maqolada Garvard oliy ta'lim maktabi professori Daniel Koretz "ta'lim siyosatidagi islohotlarni to'liq qayta ko'rib chiqish vaqti keldi, chunki u ishlamayapti", deya ta'kidlaydi.

Rossiyada ham reytinglar bahsli mavzu hisoblanadi. Chunki maktab ta'limi sifati bolalarning imtihondagi natijalari va fan olimpiadalaridagi g'alabalari bilan baholanadi. Ota-onalar farzandlarini maktabga berishda ushbu reytinglarga e'tibor qaratadi. Shundan kelib chiqib, ko'pchilik maktablar o'z reytingini yaxshilash uchun faqat qobiliyatliroq maktabga qabul qilishni xohlaydi. Ko'p hollarda esa o'rta sinflarda o'qituvchilarning o'zlari ota-onalarga repetitor olishni maslahat beradi, chunki bola maktabning yuqori ko'rsatkichlarini "buzishi" mumkin.

Yaqinda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan umumta'lim maktablari reytingi e'lon qilindi. Unga bag'ishlangan anjumanda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ma'lumot berilishicha, maktablarning ranglar bo'yicha

toifaga ajratilishida endi nafaqat bitiruvchilarning OTMga kirish ko'rsatkichi, balki kirish imtihonlaridagi to'plagan o'rtacha bali ham hisobga olinadi. Masalan, reyting natijalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, eng yuqori o'rinlarni Navoiy, Buxoro viloyatlari egallagan. Biroq, aslida bunday natijani aynan maktab ta'limi berdi deya olamizmi? Boisi, Buxoroda repetitorlik qanchalik samarali yo'lga qo'yilgani hech birimizga sir emas. Hattoki ba'zi bolalar maktabga bormay asosiy vaqtni maxsus tayyorlov kurslarida o'tkazayotgani, yotib o'qiyotganini hisobga olsak, bu natijalar o'zini o'zi aldash bilan barobar.

Joriy yilda turli oliy ta'lim muassasalariga kirgan 20 nafar talaba o'rtasida o'tkazilgan kichik so'rovnoma natijasi shuni ko'rsatdiki, ulardan 15 nafari repetitorga yillar davomida qatnab yaxshi ball bilan o'qishga kiryaпти, qolgani super kontraktga kirgan, shunga ham ilinmagani, shartnoma asosida katta pul to'lab xorijiy OTM talabasiga aylangan. Ushbu vaziyatning o'zi ham ayni damda maktablarni bu jihatdan toifalashtirish asossiz ekanligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, abituriyentning imtihonlarda muvaffaqiyat qozonishi faqat uning bilimiga emas, balki oilasining moliyaviy va ijtimoiy ahvoli kabi maktab ta'sir doirasidan tashqari omillarga ham bog'liq.

Maktabning asosiy vazifasi qayerda qoladi?

Bunday toifalashtirishda maktablar bitiruvchilarga kerakli bilimlarni bermay, natija uchun faqat testlarga tayyorgarlik ko'rmasligiga hech kim kafolat bermaydi. Shusiz ham ko'plab 11-sinf o'quvchilari deyarli "sirtidan" o'qiyapti.

— Hozir maktabi "qizil"ga tushib qolmasligi uchun aksariyat direktor va o'qituvchilarning o'zi repetitorga borishga imkoniyat yaratib berishyapti, — deydi Mirzo Ulug'bek tumanidagi 286-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Sanobar Berdiyeva. — Chunki birinchidan, OTMga kirish uchun faqat maktab programmasi kamlik qiladi. Har bir fanning o'z dasturi va rejayi mavjud. O'qituvchi undan chiqolmaydi. Ikkinchidan, OTMga kirish darajasida bilim berilsa ham sinfda o'quvchi soni ko'p, hammaga birday yetkazishning iloji yo'q.

Darhaqiqat, o'qituvchining vazifasi ta'lim standartidagi talab va maqsadlarga erishish. Masalan, adabiyot o'qituvchisi "Mehrobdan chayon" asari yuzasidan o'quvchilar bilan fikr almashyapti deylik, bunda ularga asarni chuqurroq tushunishga va hayotiy xulosalar chiqarishda yordam berishi lozim. O'qituvchi esa buning o'rniga kirish imtihonlarida abituriyentlarga adabiyotdan tushadigan "Anvarning: ... zero, zulmi naqa-

dar kuchaysa, uning umri shuncha qisqa bo'lishi tajribalar bilan sobitdir", — so'zlari kimga nima maqsadda aytilgan? Anvari o'z ixtiyori bilan xon huzuriga borishdan qaytarolmagan Qobilboy nima uchun ukasining xayrlashuviga javob bermay chiqib ketadi?" qabilidagi savollar bilan darsini o'tkazsa. Axir, mutolaadan maqsad mayda dattalarga e'tibor berish yoki asarni yodlash emas (bunday savollarni anglash uchun hatto adabiyotshunoslar ham bir qayta o'qib olsa kerak!), aksincha, fikrlash doirasini kengaytirish, ma'naviy ozuqa olish, xulosa chiqarish. Xo'sh, o'qituvchi kelajakda asqatadigan bilim, ko'nikmalarni shakllantirish o'miga faqat bir kunlik testda kerak bo'ladigan hayot uchun deyarli ahamiyatsiz ma'lumotlarni yodlashga o'rgatsa, maktabning asosiy vazifasi qayerda qoladi?

Bugunaynimavzu o'qituvchilarchun og'riqli bo'lib qolmoqda. Repetitorlikda testga tayyorlovchi maxsus reja va me'zonlar mavjudligi bois bitiruvchilar ularga ko'proq ishonadi. Bu haqida Roman tumanidagi 1-maktabning oliy toifali ingliz tili fani o'qituvchisi Shoira Bozorova shunday deydi:

— Oliy o'quv yurtiga kirishni ko'rsatgich qilib qo'yilganidan beri bitiruvchi sinf o'quvchilari kurslarga ketib qolyapti. Ayrim kursga bormaydiganlar ham panada qolib hunar o'rganish va uy ishlarini bajarish bilan ovora.

Maktabdan esa davomat talab qilinadi. 10-11-sinf rahbarlari yuragini hovuchlab o'quvchilarga telefon qilib orada ancha asabzozliklar bo'lyapti. Tayyorlov kurslari darsga halaqit bermasligi kerak. O'quvchilar darsdan qolib kurslarga borsa xavfsizligi uchun kim javobgar bo'ladi va ularga qanday baho qo'yamiz?...

...baholash tizimi past natija ko'rsatgan maktablarni jazolashga emas, aksincha...

Dunyo tajribasiga nazar tashlasak, maktablarning ta'lim sifatini baholash milliy dasturlari ko'plab mamlakatlarda amal qiladi. Masalan, Germaniya, Polsha, Finlandiya, Norvegiya, Kanada, Angliya kabi davlatlarda bu tizim yo'lga qo'yilgan. Misol uchun, Germaniya ta'limi baholash tizimida ikkita asosiy yo'nalish mavjud. Ulardan birinchisi, Madaniyat va ta'lim vazirligi boshchiligidagi o'tkaziladigan milliy imtihonlardir. Ikkinchi yo'nalish — Ta'lim sifatini rivojlantirish instituti (IQB) tomonidan olib boriladigan VERA-3 va VERA-8 tadqiqotlari.

Madaniyat va ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etiladigan milliy imtihonlar boshlang'ich maktablarda har 5 yilda, o'rta maktablarda 3 yilda bir marta o'tkaziladi. VERA-3 va VERA-8 bo'yicha tadqiqotlar 3 va 8-sinflarda amalga oshiriladi. Tadqiqotda har yili barcha maktablarning o'quvchilari ishtirok etadi. Asosiy maqsad maktab va

o'qituvchilar faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash uchun tahliliy bazani shakllantirishdan iborat. Natijalar bir necha hafta ichida chiqadi. Sinov natijalari ommaga e'lon qilinmaydi. Chunki, milliy baholash tizimi past natija ko'rsatgan maktablarni jazolashga emas, aksincha, ularga qo'shimcha yordam ko'rsatilishiga xizmat qiladi.

Tahlillarga ko'ra, ta'lim sifati yuqori deb baholanadigan ko'plab davlatlarda maktablar ta'lim sifatini baholash milliy dasturlari ta'limni rivojlantirish, maktablar o'zining kuchli va zaif tomonlarini anglashi, rivojlanish maqsadlarini aniqlab olishi uchun o'tkaziladi.

Xulosa o'rinda aytish lozimki, maktablarning qizil, sariq, yashil kabi toifalarga ajratilishi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Chunki qizil maktablarning rahbariyati, o'qituvchilari ma'lum huquqlardan mahrum bo'lib, kamida direktori ishdan chetlatiladi. Jumladan, toifalashtirish avvalida, "qizil maktab" toifasidagi maktablarning direktori lavozimiga "yashil", ya'ni ta'lim sifati ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan maktablarning amalda ishlab turgan o'rinbosarlari, yosh, tashabbuskor, bilimli, rahbarlik qobiliyatiga ega bo'lgan fan o'qituvchilari nomzodini xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlarida uch yillik rivojlantirish dasturlarini himoya qilgan holda, lavozimga tayinlash amaliyoti yo'lga qo'yilishi ta'kidlangan edi. Aslida, ta'limdagi muammolarning yechimi aybdorni topish yoki jazolashda emas, yordam berish yo'llarini izlash bo'lishi kerak. Qolaversa, ayni paytda maktab o'quvchining ta'limi bilan birga tarbiyasiga ham javobgar, endi buning ustiga o'qishga kirish-kirmasligiga ham javob bersa asosiy vazifasidan chalg'iydi.

Mamlakatning global va kuchli raqobatbardoshligi, jahon iqtisodiyotidagi muvaffaqiyati uning gaz va neft zaxiralari bilan emas, balki fuqarolarning bilim va aql-zakovati bilan belgilanadi. Shu bois ta'limda ko'r-korona islohotlarga o'rin yo'q. Maktabdan natijani so'rashdan oldin sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli darsliklar bilan vaqtda ta'minlash, korupsiyani yo'qotish, moddiy-texnik bazani yaxshilash kabi qator masalalarni ijobiy hal etish lozim. Bugun dunyoda ta'lim sifati bo'yicha eng yuqori o'rinlarda turgan davlatlarda o'qituvchilik eng nufuzli va ko'p maosh to'lanadigan kasblardan ekanligini hisobga olishni unutmaylik. Zero, o'qituvchilardan ham jahon standartlariga javob berishni talab qilarkanmiz, avvalo, ularni o'quvchisi ko'chada nima bilan band, testga tayyormikan, yoki oylikdan-oylikka qanday yetib olish kabi o'y-tashvishlardan xalos etish, moliyaviy rag'batlantirib, o'z ustida ishlashi uchun zamin yaratish kerak.

Shohsanam MAHMUDOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Minnatdorlik

Inson hayoti davomida juda ko'p ta'sirli voqealarga duch keladi. Aynan yuragi jiz etganini kim bilandir bo'lishgisi keladi.

Ijod maktabidagi mehr

Qizim 7-sinf o'quvchisi Zarnigorxon Hazratqulova joriy yil Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabiga hujjat topshirdi. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, eng yuqori ball bilan qabul qilindi. Yuzlab o'quvchilar orasida sinovlardan o'tolmay ko'zyosh qilib, haqiqat yo'q ekan, deganlar ham bo'ldi. Yo'q, unday emas. Imtihon mutlaqo shaffof bo'ldi. Agar haqiqat bo'lmaganida, men kabi topgani ro'zg'ordan ortmaydigan oddiy bir o'qituvchining farzandi o'qishga kirarmidi?!

Ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlar havas qilsa arzigudek. Xonalar katta va yorug'. Eng so'nggi axborot texnologiyalari bilan jihozlangan. O'quvchilarga berilayotgan oziq-ovqatni aytimsizmi, bundaylarini farzandimga hatto uyda berolmayman. Bir men emas, oddiy oilalarning barchasida shunday...

Qizim shamollab qolib bir hafta darslarda qatnasholmadi. Sog'ayib qaytgach ta'lim muassasasi rahbari taniqli shoir Muhammad Ismoil qizimni otalarcha bag'riga bosib, "Yaxshi bo'lib qoldingizmi? Sizni har kuni yo'qlab turdim. Sog'inib qoldik, ona qizim" deganini eshitgan kishi qalbida bu insonga nisbatan hurmati oshadi. Chunki o'quvchiga bunday samimiy munosabat miyamizga o'mashib qolgan "barcha rahbarlarning burni osmonda" degan fikrni mutlaqo yo'qqa chiqaradi.

Maktabning yana bir qalbidaryo o'qituvchisi Mohidil Ziyoyeva. Bu muallima ham qizimga xuddi ikkinchi onadek mehribon. Biz ota-onalar farzandlarimiz shunday fidokor ustozlar qo'lidaligidan xotirjamiz.

Feruza HOSHIMOVA,
Bekobod tumanidagi
48-maktab boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Hamamizning sevib mutolaa qiladigan kitobimiz bor. Shu asarni har gal o'qiganimizda yangi qirralari ochilaveradi go'yo. Mana shunday durdona asarlardan biri, men qayta-qayta o'qiydigan kitob iste'dodli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidir.

Kitobxon bo'laylik, hamkasblar!

Ushbu romanda Toshkent yaqinidagi qishloqlardan birining chorak asrlik hayot tarzi hikoya qilinishi asnosida butun o'zbek xalqining urush yillaridagi matonati va jasorati tasvirlanadi. Undagi voqealar urush arafasida boshlanadi, urush yillari va urushdan keyingi davrda davom etadi hamda 1966-yildagi Toshkent zilzilasi bilan tugaydi.

"Ikki eshik orasi"dagi qahramonlar bir-birini to'ldirib, asarga o'zgacha ruh bag'ishlagan. Orif oqsoqol, Husan duma, Komil tabib kabilar o'zining yorqin fe'l-atvori, ajabtovur odatlari va yuksak insoniy fazilatlarini bilan barchamizga o'rnak bo'la oladi. Muallif, ayniqsa, Orif oqsoqol obrazini juda chiroyli ochib bergan. U haqiqatni yuzga aytishdan cho'chimaydigan, shartaki, jasoratli odam. Har erkakning belidagi belbog'i — uning uchun mardlik, tantilik, jasurlik belgisi.

Asosiy qahramonlar — Muzaffar va Munavvar mash'um urushning qaysidir ma'noda qurbonlari bo'lishdi, deb o'ylayman. Urushdan keyin tug'ilgan bu sevishtan yoshlar ko'kaldosh bo'lib chiqishi kitobxonni larzaga soladi. Asar o'zining hayotiyli, odamlarning go'zal va barkamol ma'naviy qiyofalarini ko'rsatishi bilan badiiy qiymati yuqori.

Men ustoz sifatida o'z o'quvchilarimni doim kitob mutolaasiga rag'batlantiraman. Tavsiya qilingan kitobni bolalarga asl mag'zini yetkazishga harakat qilaman. Bu borada o'qituvchining o'zi ham kitobxon bo'lishida gap ko'p.

Barno SODIQOVA,
Yashnobod tumanidagi
215-maktabning ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi

Ta'kid

Milliy o'quv dasturining afzalliklari

Ta'limni tubdan isloh qilish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-2022-o'quv yili uchun respublikaning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari 1-, 2-sinflarida Milliy o'quv dasturining amaliyotga joriy etilishi biz, pedagoglar uchun quvonarli bo'ldi, albatta. Boisi, amaldagi o'quv dasturi bilan milliy o'quv dasturidagi o'zgarishlar hajmi va maqsadi farq qiladi.

Milliy o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyaga asoslangan ta'lim uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Dasturda didaktik va raqamli ta'minotning mavjudligi o'qituvchi uchun ham qulaydir. O'qituvchi kitobi, o'quvchi daftari, multimedia ilovalari va raqamli kontentlar darslarning sifatli tashkil etilishiga munosib xizmat qiladi. Darsliklarga 50 foiz gacha amaliy mashg'ulotlarning kiritilishi esa o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantiradi.

Amaliyot davrida shunga guvoh bo'lyapman-ki, darsliklarda fanlararo integratsiya ta'minlangan, mavzular o'quvchilar yoshiga mos, hayotiy misollar asosida sodda va qiziqarli qilib berilgan. Masalan, 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanida "Maktabim — ikkinchi uyim" mavzusida "Shippak" hikoyasi berilgan. Hikoyada Firdavs uyqudan kech turganligi sabab, maktabga kech qoladi va shoshilganidan shippakda keladi. Maktabga birga kelgan singlisi buni taajjub bilan akasiga aytadi. Firdavs bu holatda bir oyog'iga, bir yog'ayotgan yomg'irga qaraydi... Hikoya oxirida matnini qayta so'zlash va anglash uchun savollar berilgan: "Firdavs etigi yo'qligini bilganida qanday ahvolga tushdi? Uning yuz ifodasini o'xshatib bering" bu savolga javob olish men uchun juda maroqli bo'ldi. Sababi, Firdavsning yuz ifodasini o'xshatib berayotgan o'quvchini boshqa o'quvchi-

lar zavq bilan kutadi. O'quvchilar tasavvur qilib o'xshatib berishi mavzuning yaxshiroq esda qolishiga yordam berdi.

Xuddi shu darslikda "Maktabim direktori bo'lib qolsam..." mavzusini o'tganimda ham juda quvonchli lahzalarga duch keldim. Bu yerda quyidagicha savollar berilgan:

1. Maktabingizdagi muammolarni yozing.
2. Tasavvur qiling, sizni maktabga direktor qilib tayinlashdi. Xo'sh, endi qanday yo'l tutasiz? Maktabingiz yaxshi bo'lishi uchun nima ishlar qilasiz? Bu haqda tartib bilan yozing.

"Nima yaxshi?" mavzusida esa quyidagicha savollar berilgan:

1. Eng yaxshi maktabni qanday tasavvur qilasiz?
2. Eng yaxshi o'qituvchi qanday bo'ladi?
3. Sizningcha, eng yaxshi dars qanday bo'ladi?
4. Eng yaxshi darslik qanday bo'lishi kerak?

Bu savollarga javob olish jarayonida o'quvchilar orzularga berilib javob bergan o'rtog'ining fikrlarini kulib tasavvur qildi. Darslikda berilgan barcha savol va topshiriqlar matnini qayta so'zlash emas, balki erkin fikr yuritishga yo'naltirilgan. Bu esa darsning sifatli va qiziqarli o'tishiga xizmat qilmoqda.

Manzura KARIMOVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi
37-maktabning oliy toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

"Assalomu alaykum"

bu so'z tarixini bilasizmi?

Payg'ambarimiz Muhammad Sallallahu alayhi vasallamga endigina vahiy kela boshlagan yillar, ya'ni u ulug' zotni hatto eng yaqinlari ham payg'ambar deb tan olmayotgan paytlar Vaddon vohasidagi qabilada istiqomat qiluvchi Abu Zar kunyasi bilan tanilgan Jundub ibn Junoda yangi payg'ambar zohir bo'lishini, odamlarning qalbini imon-u e'tiqodga to'ldirib, zulmatdan nur sari yetaklashini intizorlik bilan kutardi.

Qishlog'idan tez-tez Mak-kadan Shomga tomon yo'lga chiqqan savdogarlar o'tardi. Ular yangi payg'ambar chiqqan-chiqmaganligi haqidagi xabarni surishtirishardi. Qishloq ahli savdogarlar to'laydigan soliq hisobiga kun ko'rishgan. Bordi-yu ular soliq to'lamasa, karvonni talon-taroj qilishardi.

Bir kuni u savdogarlardan yangi payg'ambar haqidagi xabarni eshitib, ukasini Mak-kaga borib, payg'ambarlik da'vo qilayotgan odam bilan uchrashib qaytishga yubordi. Ammo ukasi kelgach, uning javoblaridan qoniqmay, o'zi ham borishga ahd qildi. Ukasi-ga oilasidan xabar olib turishni

tayinlab, Makka tomon yo'lga chiqdi.

— Mayli, ammo Makka ahli-dan ehtiyot bo'l, — deb tayinladi ukasi.

Abu Zar Makkaga xavotir va hadik bilan kirib bordi. U Muhammadga ergashayotganlar boshiga odamlar it kunini solishayotganidan xabardor edi-da. Shuning uchun yangi payg'ambar haqida surishtirmadi. Tun kirgach bir chekkaga borib yonboshladi. Nogahon uning yonidan o'tayotgan Ali ibn Abu Tolib mehmon ekanligini bilib, uyiga taklif qildi. Ular tunni birga o'tkazishgan bo'lsa-da, bir-biridan hech narsa surishtirishmadi.

Ertalab Abu Zar xaltasini yelkasiga osib, masjidga jo'nadi. Tun kirgach, yana kechagi holat qaytarildi. Uchinchi oqshom Ali mehmondan Makkaga kelish sababini so'radi.

— Agar yordam ko'rsatishga so'z bersangiz, aytaman, — dedi mehmon. Ali so'z berdi. Abu Zar muddaosini aytdi. Ali xursand holda:

— Allohga qasamki, u kishi Allohning haq elchisidir, — dedi va tong otgach uning oldiga olib borishini aytdi.

O'sha tun Abu Zar uxlamadi. Ertasiga esa Ali ibn Tolib kirgan eshikdan kirdi-yu:

— Assalomu alaykum, sizga salom bo'lsin, Allohning elchisi, — dedi.

— Senga ham Allohning salomi, rahmati va barakotlari bo'lsin, — alik oldi Rasululloh (SAV).

Shu bilan Abu Zar islomiy salomni joriy qilgan odam bo'lib qoldi.

Muhammadrasul
KIMSANBOYEV,
Yozovon tumanidagi
16-maktabning ijodiy-madaniy
masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

O'QITUVCHIning malaka oshirishi

O'QUVCHIlarning ta'limiga ta'sir qiladi

Ma'lumki, ta'limning sifati pedagoglar sifatiga chambarchas bog'liq. Ta'limning o'quvchi ma'lumotlarni passiv qabul qilishiga asoslangan an'anaviy modeli zamon talablariga javob bera olmasligi, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish, jamoa bo'lib ishlash, yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish singari muhim kompetensiyalarga ega shaxsni tarbiyalay olmasligi tadqiqotlarda isbotlangan. Demak, bugungi kun pedagogi ta'limni interaktiv tashkil etish, o'quvchini ta'lim markaziga qo'yish strategiyalari va bu strategiyalar zamiridagi nazariyalardan xabardor bo'lmog'i lozim. Bunda pedagogning o'z malakasini doimiy oshirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

lari bozorida raqobatni ta'minlaydi va pirovardida sifatga xizmat qiladi.

UNESCO tomonidan bir qancha davlatlarda, xususan, O'zbekistonda olib borilayotgan "TDP@Scale" loyihasining maqsadi har bir mamlakatga mos keladigan malaka oshirish modelini amaliyotda sinab ko'rish va uni tadqiqot natijalariga ko'ra mamlakat miqyosida tatbiq qilish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Loyiha "Ta'lim uchun global hamkorlik – Bilim va innovatsiya almashish" (GPE-KIX) tashkiloti tomonidan moliyalashtirilmoqda. O'zbekistonda loyiha hamkori

amaliyot asoslarini o'rganishadi. Tanlov modullari esa pedagogga quyidagi yo'nalishlardan o'z qiziqishiga moslarini tanlab, chuqurroq bilim olish imkonini beradi:

- ta'limiy maqsadlarni aniqlashtirish va darsni rejalashtirish;
- loyihaga asoslangan ta'lim;
- izlanishga asoslangan ta'lim;
- o'quvchilarni baholash;
- ta'lim jarayonida AKTDan samarali foydalanish.

Loyihaning birinchi bosqichida taklif qilinayotgan malaka oshirish modeli sinovdan o'tkazildi. Sinov so'ngida modelning samaradorligi va malaka oshirishda qatnashgan pedagoglarning unga munosabatlarini o'rganish maqsadida intervyyalar va fokus-guruhlarda muhokamalar tashkil qilindi.


Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagoglar sinab ko'rilgan model haqida, umuman olganda, ijobiy fikrlar bildirdilar. Aksar o'qituvchilar malaka oshirish treninglari onlayn shakldan ko'ra an'anaviy (yuzma-yuz) shaklda o'tkazilgani ma'qul deb hisoblashlarini qayd etishdi.

O'qituvchilar platformada berilgan vazifalarni asosan maktabda darsdan keyin bajarishgan va hamkasblari bilan muhokama qilishgan. Shuningdek, platforma orqali o'rganilgan metodlar va yondashuvlarni o'z darslarida sinab ko'rishga harakat qilishgan. Ayrim o'qituvchilar hatto o'z darslarini videoga olib, hamkasblariga namoyish etishgan hamda darslarining yutuq va kamchiliklarini muhokama qilishga harakat qilishgan.

Intervyyalar davomida loyihada qatnashgan o'qituvchilar sinab ko'rilgan modelni takomillashtirish yuzasidan o'z takliflarini bildirdi. Xususan, modelning onlayn qismi o'qituvchilarni o'ziga ko'proq jalb qilishi uchun audio va video materiallardan ham keng foydalanish, o'rganilayotgan metodlar va yondashuvlar borasida boshqa maktablarda ishlaydigan hamkasblari bilan fikr almashish uchun haftada bir marta Zoom platformasida muhokama vaqti tashkil qilish, pedagogni baholash uchun turli yondashuvlardan (testlar, yozma ishlar, videoga yozib olingan darslar singari) foydalanish kabi takliflar ilgari surildi.

Pedagoglar tomonidan bildirilgan takliflar tahlil qilinib, umumlashtirildi hamda malaka oshirish modeli va mazmuniga o'zgartirish kiritildi. Loyihaning keyingi bosqichida takomillashtirilgan model qayta tajriba-sinovdan o'tkaziladi. Bunday yondashuv malaka oshirish kurslarini taklif qilishda bevosita ularda o'qiydigan pedagoglarning ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi.

Komil JALILOV,
Prezident ta'lim muassasalari
agentligi O'quv jarayonini metodik
ta'minlashni takomillashtirish
bo'limi boshlig'i



Osiyo taraqqiyot bankining O'zbekiston ta'lim sektori tahliliga bag'ishlangan hisobotida (2018-yil) qayd etilishicha, pedagog kadrlarning sifati quyidagi besh omil bilan belgilanadi:

- o'qituvchilik kasbiga nomzodlarni tanlash jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi;
- o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining samarali yo'lga qo'yilganligi;
- o'qituvchilarni baholash tizimining standartlar va o'quv dasturlariga mosligi;
- kasbiy rivojlanish (karyera qilish) tizimining jozibadorligi;
- munosib maosh va rag'batlantirish tizimining faoliyat samaradorligiga bog'liqligi.

Muvaffaqiyatli ta'lim tizimlarida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga alohida e'tibor beriladi. Misol uchun, Norvegiyada o'qituvchining yillik ish vaqtining 6 kuni malaka oshirish uchun ajratilsa, Yaponiyada bu ko'rsatkich 10 kunni, Singapurda 12 va Shanxayda 33 kunni tashkil qiladi. O'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholashga qaratilgan xalqaro PISA tadqiqotlarida Shanxay, Singapur va Yaponiya yuqori o'ntalikka kirishini hisobga ol-sak, o'qituvchining malaka oshirishi va

o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlari o'rtasida ma'lum bir bog'liqlik mavjud, degan xulosaga kelish mumkin.

Har besh yilda hududiy malaka oshirish institutlarida majburiy tarzda 144 soatlik malaka oshirish pedagogning ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi va malaka oshirish tizimini quruq rasmiyatchilikka aylantiradi. Mazkur muammoning yechimi sifatida davlatimiz rahbari 2020-yil 6-noyabrda imzolagan "O'zbekistonning yangi taraqqiyoti davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida malaka oshirish tizimining "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirilishi va pedagoglarga o'zi tanlagan ta'lim muassasasida malaka oshirish imkonini berilishi qayd etilgan. Bunda ta'lim muassasalari taklif etayotgan malaka oshirish kurslarining ham mazmun, ham yondashuv (model) jihatdan har xilligi malaka oshirish xizmat-

sifatida Prezident ta'lim muassasalari agentligi ishtirok etmoqda.

Bugungi kunda agentlik tizimidagi Prezident va ijod maktablarida loyihaning birinchi bosqichi yakunlandi. Ushbu bosqichda sinab ko'rilgan malaka oshirish modeli ikki qismdan iborat bo'lib, bevosita (yuzma-yuz) va onlayn yondashuvlarning qorishmasiga qurilgan. Dastlab pedagoglar uchun uch kunlik trening tashkil qilindi. Treningdan so'ng pedagoglar treningda olgan bilimlarini maxsus platforma yordamida uch oy davomida chuqurlashtirdilar va o'rganilayotgan yangi yondashuvlarni o'z darslarida tatbiq qilib ko'rdilar. Bu jarayonda maxsus tayinlangan mentorlar pedagoglarga yordam berishdi.

Modelning yana bir o'ziga xos xususiyati – o'qituvchilarga majburiy va tanlov modullarining taklif qilinishi. Majburiy modullarda o'qituvchilarga o'rganish nazariyasi, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim asoslari va reflektiv

Har besh yilda hududiy malaka oshirish institutlarida majburiy tarzda 144 soatlik malaka oshirish pedagogning ehtiyojlarini qondirmaydi va malaka oshirish tizimini quruq rasmiyatchilikka aylantiradi.

Tajriba

Hech e'tibor berganmisiz, yosh bolalar biri-biri bilan umuman til to'siqlarini sezmay o'ynashadi. Agar tengdoshlari bilan gaplashishni xohlasa, og'zaki bo'lmagan aloqa vositalaridan ham foydalanishlari mumkin.

Til o'rganishda bolalarcha bo'laylik!

Buning sababi shundaki, ularning ongi va xotirasi tartibsiz bo'lib, noma'lum narsadan qo'rqmaydi, ya'ni kattalarga o'xshab o'z ongostida begona tilda xato gapirib qo'yishdan qo'rqish kabi to'siqlarni qo'ymaydi. Shuning uchun bolalarni kichik yoshidan turli xil aqliy rivojlantiruvchi mashg'ulotlar orqali til o'rganishga jalb qilish juda katta samara beradi.

Xorijiy tillarni o'rganish ko'nikmasi katta yoshli bolalarga nisbatan jazzi bolajonlarda tezroq rivojlanadi. Sababi, bola yoshi ulg'ayib, o'z ona tilida gapirishga, mustaqil fikrlashga o'rganganida uning nutqida xorijiy tilni o'zlashtirishga qarshi to'siqlar paydo bo'la boshlaydi. Masalan, ingliz tili misolida tahlil qilsak, ushbu tilda berilayotgan ma'lumotni avval o'z tilida tushunadi, miyasida o'zbek tilidagi matnni tayyorlab, ingliz tiliga tarjima qilgandan keyin, og'zaki yoki yozma nutqda ifoda etadi. Bu juda uzoq va qiyin jarayon bo'lganligi uchun ham katta yoshli bolalarda til o'rganish qiyin va zerikarli kechadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari barcha yangi narsalarga qiziqishi, tabiiy. Shuning uchun ham bugungi kunda yurtimizda boshlang'ich sinfdan xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish va rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Rossiya psixologlar jamiyati faoli Yelena Tostikina "Erta bolalik davridagi parvarish va ta'lim" mavzusida o'tkazilgan uchinchi xalqaro konferensiyada ayni shu mavzuda fikrlarini bildirib, kichik yoshli bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish nafaqat samarali, balki bola tarbiyasi uchun ham juda ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, 3–5 yosh lingvistik rivojlanish uchun eng qulay davr bo'lib, keyingi lingvistik ta'lim uchun mustahkam asos bo'lishi mumkin. Shuningdek, erta yoshdan boshlab bolalar til o'rganish jarayonida boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishadi va natijada insonlarga nisbatan bag'rikeng va hamdard bo'lib o'sadi.

Men faoliyatim davomida ko'proq differensial yondashuvni qo'llashga harakat qilaman. Bolalarga ingliz tili fonetikasi, grammatikasi asoslarini o'rgatish va ularning so'z boyligini boyitish maqsadida bolaning individual xususiyatlari, reaksiya tezligi, ruhiy holatini hisobga olish eng to'g'ri yo'l deb bilaman. O'quvchilar egallagan bilimlari, motivatsiyasi, o'rganish uslublari va boshqa jihatlarida juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu farqlarga mos keladigan tarzda o'qitish esa differentsiatsiya deb ataladi. Differensial yondashuvning asosiy maqsadi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda zarur minimumni emas, balki materialni o'zlashtirishda maksimal chuqurlikni, har bir o'quvchining qobiliyatini to'g'ri rivojlantirishni ta'minlashdir. Ushbu jarayonda she'r va qo'shiqlar, shuningdek, ertak, kichik spektakl, multfilm, har qanday ko'rgazmali qurollar nihoyatda foydali.

O'quvchilarim "Step by step instructions" mashg'ulotini o'tkazishni juda yaxshi ko'radi. Bu o'yinda, masalan, origami, rasm chizish, ma'lum turdagi sendvich yasash kabilarni o'rgatish va bir vaqtning o'zida ularning tinglab tushunish qobiliyatini oshirish mumkin. Asosan tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ushbu mashg'ulotda o'quvchilar og'zaki javob berishlari yoki umuman so'zlarni shakllantirishlari shart emas. Shunchaki tinglash va ko'rsatmalarni bosqichma-bosqich bajarish kerak. Interaktivlikni oshirish va bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun "topshiriq beruvchi" va "topshiriqni bajaruvchi" bolalar guruhlariga bo'lish ham mumkin.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda nafaqat ingliz tili, balki istalgan boshqa tilni o'qitishda kommunikativ yondashuvlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Axborot texnologiyalari ta'limda juda muhim o'rin tutadigan davrda yashayapmiz: chet tilini o'qitishda ulardan foydalanish motivatsiyani oshiradi, o'quvchilarning bilim olishini osonlashtiradi va sifda qulay psixologik muhit yaratishga yordam beradi. Qolaversa, bolalardagi beg'uborlik, xato qilishdan uyalmalik kabi xislatlarni kattalar ham o'zida shakllantirishga harakat qilsa, yangi tillarni tez o'zlashtirishi ancha oson kechadi.

Xolida XUSHMURODOVA,
Kattaqo'rg'on shahridagi
16-IDUMning ingliz tili fani o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Darsda qo'llash uchun boshqotirmalar

"GEOGRAFIK TERMINLAR"

G						
E						
O						
G						
R						
A						
F						
I						
Y						
A						

1. Ufq tekisligi.
2. Yer yuzasida qutblar bilan barobar uzoqlikdan o'tkazilgan aylana chiziq.
3. Cho'kindi tog' jinsi.
4. Yer sharining modeli.
5. Yer yuzasi shakllari majmuyi.
6. Joy yoki xaritada shimol yo'nalishi bilan tanlangan narsa yo'nalishi orasidagi burchak.
7. Shamolning yo'nalishi va tezligini aniqlaydigan asbob.
8. Biror joy ob-havosining ko'p yillik rejimi.
9. Uch tomoni suv bilan o'ralgan quruqlik yer.
10. Yer sharining havo qobig'i.

Javoblar: 1) gorizont, 2) ekvator, 3) ohaktosh, 4) globus, 5) relyef, 6) azimut, 7) fluger, 8) iqlim, 9) yarimorol, 10) atmosfera.

"O'ZBEKISTON SHAHARLARI" chaynvordi

1.	O'			
2.	Z			
3.	B			
4.	E			
5.	K			
6.	I			
7.	S			
8.	T			
9.	O			
10.	N			

1. Farg'ona viloyatidagi shahar.
2. Viloyat markazi bo'lgan shahar.
3. Samarqand viloyatidagi tuman.
4. Respublikamiz janubidagi viloyat markazi.
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti.
6. Respublikamizdagi viloyat markazi.
7. Qashqadaryo viloyatidagi shahar.
8. O'quv quroli bilan nomdosh bo'lgan shahar.
9. Respublikamizdagi muzey-shahar, viloyat markazi.
10. Xorazm viloyatidagi shahar.

Javoblar: 1) Qo'qon, 2) Jizzax, 3) Jomboy, 4) Termiz, 5) Nukus, 6) Guliston, 7) Koson, 8) Kitob, 9) Buxoro, 10) Xonqa.

"YARIMOROLLAR"

1.	Y				
2.	A				
3.	R				
4.	I				
5.	M				
6.	O				
7.	R				
8.	O				
9.	L				

1. AQSHdagi shtat bilan nomdosh yarimorol.
2. Osiyoning eng shimoliy yarimoroli.
3. Ukrainadagi yarimorol.
4. Ispaniya davlati joylashgan yarimorol.
5. Afrikadagi davlat bilan nomdosh yarimorol.
6. Murmansk viloyati joylashgan yarimorol.
7. Yapon va Sariq dengizlari orasidagi yarimorol.
8. Bolgariya, Albaniya davlatlari joylashgan yarimorol.
9. Malayziya va Tailandga qarashli yarimorol.

Javoblar: 1) Alyaska, 2) Taymir, 3) Qrim, 4) Pireney, 5) Somali, 6) Kola, 7) Koreya, 8) Bolqon, 9) Malakka.

"ATAKAMA"

A					A
T					T
A					A
K					K
A					A
M					M
A					A

1. Sehrli diyori.
2. O'rta Osiyodagi qadimiy shahar.
3. Yevropadagi mitti davlat.
4. Atmosferadagi optik hodisa.
5. Shimoliy-qutbiy o'lka.
6. Indoneziyadagi daryo.
7. Amerika Qo'shma Shtatlaridagi shtat.

Javoblar: 1) Amerika, 2) Toshkent, 3) Andorra, 4) kamalak, 5) Arktika, 6) Mahakam, 7) Alabama.

Tuzuvchi: Nodirbek YO'LDOSHEV,
Zomin tumanidagi
36-maktabning geografiya fani o'qituvchisi

Davr muvaffaqiyatlarga suyanib yashashni emas, imtiyozlardan imkoniyat topib, odimlashni talab etayotir.

Olis, yaqin manzillar

Ikki uch yil avval ham shahar markazidagi maktab binolaridek ta'lim maskanlari qishloqlarimizda yo'qligidan xafa bo'lardik.

Bizning Dehqonobod tumani viloyat markazidan ancha olisda, maktablarimiz esa, asosan, qishloqlarda joylashgan. Shunday bo'lsa-da, bugun har bir maktabimizda o'quvchilarning bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yetarli.

Markazdan 187km uzoq masofadagi Terakli qishlog'ida 72-maktab bor. Ushbu maktab o'rmda oldin qishloq aholisi hashar yo'li bilan uch-rtta moslashtirilgan o'quv xonalari barpo etgan. Bu binoda imkon darajasida o'quvchilar ta'lim olib kelgan.

O'quv jihozlari ham haminqadar, xonalar qorong'i, isitish pechlari ham qo'lbola edi. Bugun ushbu manzil yoshlari ham chiroyli, zamon talablariga javob beradigan, shinam va yorug' xonalarda bilim olishmoqda. Maktab direktori Abdusot Ablazov boshchiligidagi 33 nafar o'qituvchi 218 nafar o'quvchilarga ta'lim-tarbiya bermoqda. Eng chekka manzil – tog' etagida joylashgan qishloqlarda bunday ko'z quvnatadigan maktablar borligi ta'lim sohasidagi islohotlarning bir namunasi.

Hoji Ibrohim qishlog'ida 43-maktabim ham olis tog'li hududda. Po'lat Norboyev rahbarlik qilayotgan bu maktabda 400 nafardan ortiq o'g'il-qizlar ta'lim olmoqda. Hozirda ushbu ta'lim muassasamiz eng namunali maktablardan biri. Boisi, besh tashabbus doirasida maktabda ijodiy to'garaklar: musiqa, kompyuter, sport, kitobxonlik, tikuvchilik, kashtachilik, duradgorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Buning natijasi – tuman miqyosida o'quvchilar o'rtasida o'tkazib kelinayotgan tanlovlarda 43-maktab yoshlari o'zlarining faol ishtiroki, harakatchanligi bilan birinchilar qatoridan joy egallab kelishadi.

Bugun tumanimizdagi 61-maktab haqida gap ketganda, eng avvalo, stol tennis bo'yicha chempion o'quvchilari tilga olinadi. Tajribali jismoniy tarbiya o'qituvchisi Baxtiyor Rahmonov stol tennisining ashaddiy ishqiboz. Bu esa shogirdlari yutug'ida ham sezilib turadi. U kishini doim bo'sh vaqt topdi deguncha stol tennis oldidan topasiz. Bilasiz, bu o'yinda ikkinchi tomondan hamroh bo'lmasa o'yin tugul mashq qilish ham amrimahol. Shu sababdan Baxtiyor aka doim bir o'quvchini raqiblikka chorlaydi va jarayonning o'zida bu sport turining sirlarini o'rgatib boradi. Qarabsizki, qisqa vaqtda bir shogird tayyor. Keyin esa, boshqa birini qiziqitira boshlaydi. Tez orada atrofida shogirdlari safi ko'payadi. Ularni yanada qiziqitirish uchun maktab birinchiligi

gini tashkil etib, o'z hisobidan bo'lsa-da yoshlarni rag'batlantiradi. Hattoki, maktab direktori Xurram Berdiyev va boshqa fan o'qituvchilari ham shu sportga qiziqitira olgan. Bu esa birgina fidoyi o'qituvchining harakati bilan sog'lom turmush tarzi shakllanganidan dalolat beradi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun olis hududmi yoki markaz, barchasiga birdek ta'lim islohotlari kirib bordi. Maktablarmizda imkoniyatlar kengaydi. Bu esa bizdan faqatgina ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, o'quvchilarmizning xalqaro fan olimpiadalari, tanlov va sport musobaqalarida ishtirokini ta'minlash hamda g'oliblar qatoridan o'rin egallashishiga erishishda faollikni talab etadi.

Baxtiyor YUSUPOV,
Dehqonobod tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri

Intervyu

“Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

“Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi”.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 42-modda.

Ta'limga yangicha yondashuv — kadrlar mahoratiga bog'liq

Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etilishi bilan yurtimizda ta'lim muassasalari sifat samaradorligini o'rganish hamda ularning reytingini tuzish yo'lga qo'yildi. 2018-yildan joriy etilib, e'lon qilib kelinayotgan oliy ta'lim muassasalar milliy reytingi indikatorlarini ishlab chiqishda dunyoning nufuzli reyting agentliklari – THE, QS hamda ARWU tajribasiga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekistonning 62 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyatiga oid 2020-yil yakunlari bilan 20 dan ortiq indikatorlar bo'yicha joriy yil noyabr oyida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Navoiy davlat konchilik instituti O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingida to'qqizinchi o'rinni egalladi.

Navoiy davlat konchilik institutida ta'lim sifatini yanada oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar xususida institut ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, professor To'liqin NURMURODOV bilan suhbatlashdik.

– Ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta'minlashda professor-o'qituvchilar, pedagog xodimlarning kasbiy mahorati muhim sanaladi. Ayni paytda institutda o'qituvchilar, olimlarning kasbiy va ma'naviy saviyasini yanada yuksaltirish borasida qanday ishlar olib borilmoqda?

– Bugun yoshlarimiz ilg'or fikrlamoqda. Darslarni ularning talabiga mos, yuqori darajada tashkil etish uchun murabbiy har bir mashg'ulotga alohida tayyorgarlik ko'rishi zarur. Institutimizda yangi va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, o'quv dasturlarini joriy etish bilan birga, pedagoglarning kasbiy mahoratini

izchil oshirib borish asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Institutimiz olimlari nufuzli xorijiy ta'lim dargohlarida tajriba o'rtirishi uchun loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu yilda ham o'nlab professor-o'qituvchilarmiz Rossiya, Belarus kabi davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirib qaytishdi. Jumladan, noyabr oyida “Noyob va radioaktiv metall rudalarni qazish va qayta ishlash” kafedrasida assistenti Suhrob Hamidov Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tashkil qilingan yosh olimlar stajirovkasi tanlovi g'olibi bo'lib, Belarus milliy texnika universitetida bo'lib qaytdi.

Shuningdek, “Avtomatlashtirish va boshqaruv” va “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedralari olimlari Sh.O'rinov, A.Samadov, A.Mamadiyev va M.Soyibovlar Stankin nomidagi Moskva davlat texnologiya universitetida stajirovkada bo'lishdi. Yil yakuniga qadar yana uch nafar professor-o'qituvchi xorijiy davlatlarda stajirovkadan qaytishadi.

Institut professor-o'qituvchilari kasbiy mahoratini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi uchun hududdagi ishlab chiqarish korxonalarida stajirovkalar tashkil etilgan. Ilmiy-tadqiqot sohasida hamkorlik va aloqalarni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tarmoq institutlari, Ilg'or texnologiyalar markazi, O'zbekiston Milliy universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo texnologiyalari instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va boshqa yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

– Institutda respublikaning boshqa

oliy ta'lim muassasalarida kam uchraydigan dual tizimida o'qitish tashkil etilganligidan xabarimiz bor. Ayting-chi, talabalarning malakaviy amaliyotini tashkil etish borasida yana qanday yutuqlarga erishilmoqda yoki bu borada muammolar mavjudmi?

– Institutda fan, ta'lim va ishlab chiqar-

tut kon-metallurgiya sohasida oliy va o'rta maxsus ta'limning eng yaxshi an'analari tan olingan hamda ilmiy yo'nalishtirish va maktablarni o'zida mujassam etgan dargohdir. Biroq bugungi davr muvaffaqiyatlarga suyanib yashashni emas, imtiyozlardan imkoniyat topib, odimlashni talab etayotir.

Navoiy davlat konchilik institutida ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha 2022-yilgacha mo'ljallangan istiqbolli reja ishlab chiqilgan. Joriy yilning shu bugungi kungacha qadar institutning 21 ta dissertatsiya himoyalari amalga oshirilgan, jumladan 3 nafar xodim fan doktori(DSc) va 18 nafari falsafa doktori(PhD) dissertatsiyalarini himoya qildi. Yil yakunida yana 10 nafar olimimiz dissertatsiya himoya qilishi kutilmoqda.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinatini 2026-yilgacha Innovatsion rivojlantirish dasturi” bo'yicha Navoiy davlat konchilik instituti olimlari tomonidan 52 ta loyiha bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 2019-yili institutda tashkil etilgan texnoparkda pilot va yarimsanoat qurilmalari o'rnatilgan. Ishlanmalarni tijoratlashtirish va “Startap” loyihalarni yo'lga qo'yish maqsadida qator ishlarni amalga oshirayapmiz.

2022-yilda Texnopark bazasida institutning ishlab chiqarish kompleksini yaratish, mahsulotlar turlarini oshirish, moddiy-texnik bazani takomillashtirish hamda ilmiy-innovatsion faoliyatdan tushadigan mablag' hajmini 10 mlrd so'mga yetkazish rejalashtirilgan.

O'rta asrlarda jahonga yuksak darajadagi ilmiy-ma'rifiy salohiyatini namoyon qilgan ma'rifatparvar olim va ulamolarni yetishtirgan davlatchiligidan bugun ilmlar olamida quyi o'rnlarga tushib qoldi. Bu ko'pchilikni tashvishga soladi. Nima qilsak, ta'limda keskin o'zgarishlar qila olamiz? Qanday jahon standartlari, zamonaviy usul hamda uslublarni joriy qilishimiz lozim? Jahon ta'lim integratsiyasida O'zbekistonning o'rni erdaga qanday bo'ladi, kabi savollarga javob izlayapmiz, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Boisi, yaqin kelajakda institutimiz negizida 15 ming talaba tahsil oladigan Politehnika universiteti tashkil etiladi. U yerda talabalarimizga tahsil beradigan o'qituvchilarning 30 foizi xorijning nufuzli ta'lim muassasalaridan jalb qilinadi. Shu bilan birga, kuchli mingtalikka, yuztalikka kirish borasida manzilli rejalarimiz bor.

Suhbatdosh: Azamat ZARIPOV

Abituriyentga yordam

O‘TISH BALLARINING TA’LIM YO‘NALISHLARI BO‘YICHA TAHLILI

“Ma’rifat” o‘qituvchilar va abituriyentlik arafasida turgan o‘quvchilarga ko‘mak berishda davom etadi. Quyida 2021-2022-o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat yo‘nalishlariga talabalarni qabul qilish uchun o‘tkazilgan test sinovi o‘tish ballari ta’lim yo‘nalishlari kesimida berilmoqda. U muayyan yo‘nalish bo‘yicha respublikadagi barcha oliy o‘quv yurtlaridagi o‘tish ballarini o‘zaro solishtirishga yordam beradi.

Mazkur solishtirmani tayyorlashda ta’lim shakli kunduzgi, ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lgan barcha yo‘nalishlar qamrab olindi. Maqsadli qabul uchun mo‘ljallangan ta’lim yo‘nalishlari ham qayd etildi. Oliy o‘quv yurtlari ketma-ketligi muayyan yo‘nalishdagi davlat granti uchun o‘tish balining kamayib borishi tartibida – yuqori balldan past ballga tomon joylashtirildi. Jadvallarni tuzishda Davlat test markazining internetdagi mandat.dtm.uz sahifasi ma’lumotlaridan foydalanildi. Ushbu sonda matematika bilan bog‘liq ayrim asosiy yo‘nalishlarning o‘tish ballari berildi.

MATEMATIKA VA INFORMATIKA (ta’lim shakli: kunduzgi, ta’lim tili: o‘zbek)

Oliy ta’lim muassasi nomi	Ta’lim shifri	Yo‘nalish	Qabul kvotasi		O‘tish ballari	
			Davlat granti	To‘lov-shart-noma	Davlat granti	To‘lov-shart-noma
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110100200	Matematika va informatika (Sharof Rashidov tumani)	1	0	160,65	0
Toshkent davlat pedagogika universiteti	5110100	Matematika va informatika	40	85	156,45	117,6
Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110100224	Matematika va informatika (Payariq tumani)	1	0	156,45	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	12	110	153,3	96,6
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	5	60	152,25	96,6
Qo‘qon davlat pedagogika instituti	5110100141	Matematika va informatika (Rishon tumani)	1	0	151,2	0
Qo‘qon davlat pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	43	100	143,85	100,8
Qo‘qon davlat pedagogika instituti	5110100134	Matematika va informatika (Farg‘ona tumani)	1	0	143,85	0
Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110100216	Matematika va informatika (Ishixon tumani)	1	0	143,85	0
Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	27	105	142,8	92,4
Navoiy davlat pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	34	153	142,8	77,7
Andijon davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	10	65	141,75	93,45
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100172	Matematika va informatika (Jarqo‘rg‘on tumani)	1	0	141,75	0
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	26	125	138,6	89,25
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100184	Matematika va informatika (G‘uzor tumani)	1	0	138,6	0
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100187	Matematika va informatika (Koson tumani)	2	0	137,55	0
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100188	Matematika va informatika (Mirishkor tumani)	1	0	137,55	0
Guliston davlat universiteti	5110100	Matematika va informatika	10	40	136,5	96,6
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	23	160	136,5	82,95
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	20	52	136,5	75,6
Nukus davlat pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	10	35	134,4	87,15
Navoiy davlat pedagogika instituti	5110100214	Matematika va informatika (Xatirchi tumani)	2	0	128,1	0
Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	5110100	Matematika va informatika	15	35	124,95	86,1
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100176	Matematika va informatika (Qumqo‘rg‘on tumani)	1	0	122,85	0
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100177	Matematika va informatika (Sariosiyo tumani)	1	0	122,85	0
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100186	Matematika va informatika (Kitob tumani)	1	0	119,7	0

Qo‘qon davlat pedagogika instituti	5110100142	Matematika va informatika (So‘x tumani)	5	0	118,65	0
Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110100225	Matematika va informatika (Qo‘shrabot tumani)	9	0	116,55	0
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100181	Matematika va informatika (Uzun tumani)	2	0	114,45	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110100237	Matematika va informatika (Bekobod tumani)	7	0	113,4	0
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100180	Matematika va informatika (Termiz tumani)	1	0	108,15	0
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110100198	Matematika va informatika (Forish tumani)	7	0	106,05	0
Samarqand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	5110100220	Matematika va informatika (Nurobod tumani)	7	0	106,05	0
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100171	Matematika va informatika (Denov tumani)	3	0	106,05	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110100262	Matematika va informatika (Angren shahri)	2	0	101,85	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110100238	Matematika va informatika (Bo‘ka tumani)	3	0	99,75	0
Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100170	Matematika va informatika (Boysun tumani)	4	0	96,6	0
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110100201	Matematika va informatika (Mirzacho‘l tumani)	3	0	88,2	0
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100182	Matematika va informatika (Chiroqchi tumani)	5	0	87,15	0
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100151	Matematika va informatika (Peshku tumani)	2	0	86,1	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110100242	Matematika va informatika (Oqqo‘rg‘on tumani)	7	0	81,9	0
Navoiy davlat pedagogika instituti	5110100213	Matematika va informatika (Uchquduq tumani)	5	0	79,8	0
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110100203	Matematika va informatika (Yangiobod tumani)	10	0	76,65	0
Jizzax davlat pedagogika instituti	5110100195	Matematika va informatika (Amasoy tumani)	3	0	72,45	0
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	5110100247	Matematika va informatika (Quyichirchiq tumani)	9	0	70,35	0
Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti	5110100154	Matematika va informatika (Romitan tumani)	1	0	0	0
Navoiy davlat pedagogika instituti	5110100212	Matematika va informatika (Tomdi tumani)	1	0	0	0

MATEMATIKA (ta’lim shakli: kunduzgi, ta’lim tili: o‘zbek)

Oliy ta’lim muassasi nomi	Ta’lim shifri	Yo‘nalish	Qabul kvotasi		O‘tish ballari	
			Davlat granti	To‘lov-shart-noma	Davlat granti	To‘lov-shart-noma
O‘zbekiston Milliy universiteti	5130100	Matematika	40	60	166,95	131,25
Samarqand davlat universiteti	5130100	Matematika	16	45	158,55	114,45
Farg‘ona davlat universiteti	5130100	Matematika	30	45	157,5	115,5
Qarshi davlat universiteti	5130100	Matematika	8	45	156,45	107,1

Buxoro davlat universiteti	5130100	Matematika	32	68	150,15	89,25
Namangan davlat universiteti	5130100	Matematika	35	65	148,05	102,9
Qoraqalpog‘ davlat universiteti	5130100	Matematika	10	40	148,05	91,35
Samarqand davlat universiteti	5130100219	Matematika (Narpay tumani)	1	0	148,05	0
Andijon davlat universiteti	5130100	Matematika	30	70	145,95	100,8
Termiz davlat universiteti	5130100	Matematika	14	65	145,95	92,4
Urganch davlat universiteti	5130100	Matematika	35	45	142,8	101,85
Qarshi davlat universiteti	5130100186	Matematika (Kitob tumani)	2	0	140,7	0
Qarshi davlat universiteti	5130100187	Matematika (Koson tumani)	4	0	138,6	0
Samarqand davlat universiteti	5130100218	Matematika (Kattaqo‘rg‘on tumani)	3	0	138,6	0
Guliston davlat universiteti	5130100	Matematika	30	45	135,45	96,6
Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	5130100	Matematika	7	30	135,45	88,2
Qarshi davlat universiteti	5130100184	Matematika (G‘uzor tumani)	4	0	134,4	0
Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	5130100171	Matematika (Denov tumani)	3	0	131,25	0
Termiz davlat universiteti	5130100179	Matematika (Sho‘rchi tumani)	1	0	126	0
Termiz davlat universiteti	5130100170	Matematika (Boysun tumani)	3	0	124,95	0
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali	5130100	Matematika	25	25	121,8	91,35
Qarshi davlat universiteti	5130100188	Matematika (Mirishkor tumani)	2	0	119,7	0
Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	5130100181	Matematika (Uzun tumani)	3	0	114,45	0
Termiz davlat universiteti	5130100172	Matematika (Jarqo‘rg‘on tumani)	2	0	114,45	0
Qarshi davlat universiteti	5130100182	Matematika (Chiroqchi tumani)	10	0	109,2	0
Samarqand davlat universiteti	5130100223	Matematika (Paxtach tumani)	1	0	109,2	0
Samarqand davlat universiteti	5130100220	Matematika (Nurobod tumani)	9	0	99,75	0
Termiz davlat universiteti	5130100174	Matematika (Oltinsoy tumani)	4	0	93,45	0
Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	5130100177	Matematika (Sariosiyo tumani)	5	0	90,3	0
Termiz davlat universiteti	5130100181	Matematika (Uzun tumani)	10	0	85,05	0
Termiz davlat universiteti	5130100180	Matematika (Termiz tumani)	1	0	81,9	0

AMALIY MATEMATIKA (ta’lim shakli: kunduzgi, ta’lim tili: o‘zbek)

Oliy ta’lim muassasi nomi	Ta’lim shifri	Yo‘nalish	Qabul kvotasi		O‘tish ballari	
			Davlat granti	To‘lov-shart-noma	Davlat granti	To‘lov-shart-noma
O‘zbekiston Milliy universiteti	5130200	Amaliy matematika	14	36	165,9	126
Farg‘ona davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	20	30	154,35	120,75
Urganch davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	15	15	152,25	93,45
Qoraqalpog‘ davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	7	10	152,25	103,95
Namangan davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	10	40	149,1	99,75
Qarshi davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	7	30	149,1	109,2
Buxoro davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	20	30	148,05	99,75
Samarqand davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	17	33	145,95	111,3
Andijon davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	10	15	141,75	114,45
Qarshi davlat universiteti	5130200187	Amaliy matematika (Koson tumani)	2	0	136,5	0
Termiz davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	15	35	135,45	91,35
Guliston davlat universiteti	5130200	Amaliy matematika	10	15	135,24	102,9



O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	5130200	Amaliy matematika	15	35	133,35	85,05
Qarshi davlat universiteti	5130200184	Amaliy matematika (G‘uzor tumani)	2	0	117,6	0
Qarshi davlat universiteti	5130200188	Amaliy matematika (Mirishkor tumani)	2	0	117,6	0
Qarshi davlat universiteti	5130200182	Amaliy matematika (Chiroqchi tumani)	6	0	106,05	0
Qarshi davlat universiteti	5130200186	Amaliy matematika (Kitob tumani)	1	0	73,5	0

MATEMATIK INJINIRING (ta’lim shakli: kunduzgi, ta’lim tili: o‘zbek)

Oliy ta’lim muassasi nomi	Ta’lim shifri	Yo‘nalish	Qabul kvotasi		O‘tish ballari	
			Davlat granti	To‘lov-shart-noma	Davlat granti	To‘lov-shart-noma
O‘zbekiston Milliy universiteti	5130300	Matematik injiniring (ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha)	5	20	134,4	78,75
Samarqand davlat universiteti	5130300	Matematik injiniring (ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha)	10	15	118,65	84
Urganch davlat universiteti	5130300	Matematik injiniring (ishlab chiqarish sohalari bo‘yicha)	10	15	115,5	74,55

MEXANIKA VA MATEMATIK MODELASHTIRISH (ta’lim shakli: kunduzgi, ta’lim tili: o‘zbek)

Oliy ta’lim muassasi nomi	Ta’lim shifri	Yo‘nalish	Qabul kvotasi		O‘tish ballari	
			Davlat granti	To‘lov-shart-noma	Davlat granti	To‘lov-shart-noma
O‘zbekiston Milliy universiteti	5140300	Mexanika va matematik modelashtirish	10	40	143,85	74,55
Andijon davlat universiteti	5140300	Mexanika va matematik modelashtirish	5	20	130,2	87,15
Urganch davlat universiteti	5140300	Mexanika va matematik modelashtirish	5	20	129,15	69,3
Samarqand davlat universiteti	5140300	Mexanika va matematik modelashtirish	15	35	121,8	87,15
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti	5140300	Mexanika va matematik modelashtirish	5	20	118,65	73,5
Buxoro davlat universiteti	5140300	Mexanika va matematik modelashtirish	5	20	108,15	69,3

Davomi bor. Keyingi sonda Fizika bilan bog‘liq ayrim asosiy yo‘nalishlarning o‘tish ballari e‘lon qilinadi.

Alisher EGAMBERDIYEV tayyorladi.

Mana, oltin kuz ham poyoniga yetdi. U unutilmas taassurotlar qoldirishi bilan birga, gazetamizda e'lon qilingan bir-biridan ajoyib maqolalar bilan ham yodimizda qoldi. "Faslning eng yaxshi ijodkori" tanlovining (2021-yil, kuz oylari) nominatsiyalari bo'yicha g'oliblari bilan tanishing. "Ma'rifat" gazetasi sizning har bir ijodiy ishingizni qadrlaydi. Ijod qilishdan to'xtamang, kelgusi fasl g'olibi bo'lishga sizda 100 foizlik imkoniyat bor!

"Faslning eng yaxshi ijodkori"

T/r	Tanlov yo'nalishi	Maqola nomi(sanasi)	Muallif
1.	"Eng yaxshi tahliliy-tanqidiy maqola"	Navoiy ensiklopediyasining tarixiy taqdiri (17-noyabr)	Nusratullo Jumaxo'ja, filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU professori
2.	"Pedagog-muallifning dolzarb materiali"	Lug'atlar, lug'atlar va yana lug'atlar kerak yoki o'zbek tilidagi ilmiy terminlar muammosi (20-oktabr)	Erkinjon Karimov, Farg'ona davlat universiteti dotsenti, fizika-matematika fanlari doktori
3.	"Eng yaxshi ocherk yoki esse"	Kuz hayajonlari (27-oktabr)	Dilfuza Shomalikova
4.	"Ta'lim-tarbiyaga oid amaliy taklif"	Yakshanba ikkita bo'lsa edi... (27-oktabr)	Normamat Eshonqulov, Oltinsoy tumanidagi 63-maktab o'qituvchisi

Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

5.	"Voqelikka munosib sharh yoki munosabat"	Faqat 7 yoshda maktabga chiqish bolaning ayrim huquqlarini cheklashi mumkin (10-noyabr)	Akbar Ahrorov, Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi
6.	"Mazmunli intervyu, suhbat"	O'zbek tili va madaniyatini jahonga tanitayotgan ayol (24-noyabr)	Guloro Yusupova
7.	"Sermazmun sahifa"	"Mushtariy muhokamasi" (27-oktabr)	Shoira Boymurodova
8.	"Samarali metodik material"	Tinglab tushunishni rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tayyorlashni bilasizmi? (20-oktabr)	Dildor Nurmuhamedova, Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi
9.	"O'qishli badiiy asar"	O'qituvchi (29-sentabr)	Odinaxon Adbdurahimova

Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

10.	"Pedagoglar huquqi himoya qilingan eng yaxshi material"	"Ommalashtirish" "rasmiylashtirish"ga o'zgartirilsa haqiqatga yaqin bo'lardi (17-noyabr)	Gavhar Usmonova, Narpay tumanidagi 64-maktab o'qituvchisi
11.	"Eng yaxshi tarjima material"	"Alifbo" (Viktor Shklovskiy) (20-27-oktabr)	Humoyun Akbarov tarjimasi
12.	"Talaba-jurnalstning yorqin publitsistik ishi"	"Chivinlar o'ldirilishi emas, botqoq quritilishi kerak" (6-oktabr)	Murodjon Rahmatov, O'zJOKU talabasi

Tanlovning yuqorida keltirilgan nominatsiyalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan mualliflar tahririyatning faxriy yorlig'i va bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdoridagi pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Kasb-hunar ta'limi

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda tafakkurning o'рни



Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilariga kasbiy axborotlar va maslahatlar berish, kasbiy tashxis qo'yish, ularning qobiliyati, moyilligi, qiziqishlarini hisobga olish bugungi ta'lim islohotlarining muhim qirrasidir.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan kollejlarni negizida kasb-hunar maktablari tashkil etish va 9-sinf bitiruvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish belgilandi.

Kasb-hunar maktabida xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash va uning umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida davlat budjeti hisobidan amalga oshirilishi belgilangan.

Endilikda 9-sinf bitiruvchilari ixtiyoriy ravishda 11 yillik uzluksiz ta'limni umumiy o'rta ta'lim maktabida yoki davlat budjeti hisobidan kasb-hunar maktabida qiziqqan kasbi bo'yicha 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida davom ettirishi mumkin.

Prezident farmonida kasb-hunar maktablari uchun quyidagilar belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida oylik stipendiya;
- uch mahal ovqat bilan ta'minlanishi: kasb-hunar maktablari o'quvchilarini uch mahal ovqat bilan ta'minlash yoki mazkur ovqat pullarini ularga to'lab berish;
- qatnab o'qish imkoniyati yo'q o'quvchilarni bepul turarjoy, ya'ni yotoqxonalar bilan ta'minlash.

Bularning hammasi davlat budjeti hisobidan ta'minlanishi belgilangan. Kasb-hunar maktablari o'qish muddati ikki yillik kunduzgi shaklda. Bitiruvchilarga oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirish imkoniyatiga ega davlat namunasidagi professional ta'limni tugatganligi to'g'risida diplom beriladi.

Kasbiy tushuntirish ishlari, maxsus kechalar, davra suhbatlari, ko'rik-tanlovlar, musobaqalarning bo'lishi bu jarayon muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'quvchilarni kasb-hunar yo'nalishlariga tayyorlash, ularning tafakkurini kengaytirish, kasb va ixtisoslik turlari to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishtirish, qiyoslash, bu boradagi muammolarni aytib o'tish ularning biron kasbni sidqidildan tanlab, shu kasbning fidoyi mutaxassisi bo'lishining asosini tashkil etadi. Ularning layoqati, shaxsi, intilishi, qiziqishi, qobiliyatini aniqlash esa psixolog va pedagoglarga, jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, ota-onalarga katta mas'uliyat yuklaydi. Tanlangan kasblar borasida har yili tibbiy-pedagogik tekshirishlar o'tkazish, maktab, mahalla va oila birligini ta'minlashda psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, ularning ijtimoiy-pedagogik tafakkurini boyitish, ayni muddaodir. Kasbiy tafakkurning

o'sishi esa o'quvchilar qiziqish uyg'otgan kasbni tanlashini ta'minlaydi, tashkiliy, uslubiy, pedagogik-psixologik yo'l-yo'riqlar samaraliligini oshiradi. Zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarning haqiqiy ma'noda shakllanishiga turtki beradi.

Bugungi kunda jamiyat demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sari yuz tutayotgan ekan belgilangan maqsadga erishish ma'naviy boy kadr salohiyatiga bog'liq. Zero, uzluksiz ta'limning tarkibiy qismlari bo'lgan umumiy o'rta hamda kasb-hunar ta'limi o'rnatiladigan uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish faolligini qay darajada tashkil qilishga bog'liq. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdagi kasbiy-pedagogik tafakkurni rivojlantirish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni aytib o'tish maqsadga muvofiqdir:

- umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari kasbiy tafakkurini rivojlantirish ishlari zamon talablaridan kelib chiqib amalga oshirish;

- psixologik-pedagogik tomondan maslahatlar oladigan markazlarni ibratli va jonkuyar, fidoyi kadrlar bilan ta'minlash;

- "Kasbing faxriga aylansin!", "To'g'ri tanlangan kasb yarim baxtdir", "Kasblar musobaqasi", "Bugungi a'lochil o'quvchi, ertaga mohir tikuvchi", "Kasb-hunarni o'rganish jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotga erishishning asosiy vositasidir" mavzusida turli tadbirlar o'tkazish, insholar yozish, ko'rik-tanlovlar, bahs va suhbatlar uyushtirish;

- o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirish ishlari interaktiv texnologiyalardan foydalanish.

Zero, kasb-hunar shaxsning kelajagini belgilaydi. Hayot tarzini kafolatlaydi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ijobiy tomonga yo'llaydi. Bunyodkorlik, ijodkorlik, eng yaxshi raqobatbardoshlik vujudga keldi. Bu jarayonga fidoyilik bilan kirishish, yosh avlodga ko'maklashish ishlari yuqori saviyaga, yuksak tafakkur shakliga suyanagan holda amalga oshirish barkamol kadrlarni, yetuk mutaxassislarni, jahon standartlariga teng keluvchi bilimdonni voyaga yetkazadi.

Kasbiy ma'lumotlar, kasbiy maslahatlar, kasbiy tashxis, kasbga yo'naltirish va kasb tanlashda ko'maklashish ishlari jamiyatning har bir a'zosi mas'uldir. Tafakkur qudrati o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, maqsadni aniq belgilash, farqlash, bilish, aniqlash, baholash, tahlil etish, tekshirish, ixtiro qilish, o'ylash, yangi natija va yechim topish, ta'sir o'tkaza olish, maxsus qobiliyatlarni yuzaga chiqarish, nazariya va amaliyot birligini ta'minlash, tug'ma qobiliyatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ulug'oy XUDOYNABAYOVA,
Oqqo'rg'on tumanidagi
2- kasb-hunar maktabi direktori

Zakirova Umida Irkinovnaning 14.00.20 — Tibbiy genetik, 14.00.09 — Pediatriya (tibbiyot fanlari) ixtisosliklari bo'yicha "Bronxial astma moyilligi bor retsidiv bronxi bilan og'riq bolalarda klinik-genetik va funksional aspektlari va reabilitatsiyani optimallashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 233-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Bedriskiy Ivan Mixaylovichning 05.05.02 — Elektrotexnika. Elektroenergetik stansiyalar, tizimlar. Elektrotexnik komplekslar (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Ferorezonans tabiiy parametrik ikkilamchi elektr ta'minoti manbalari: tahlil va modellash" mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019. T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 227-10-32; e-mail: tadqiqotchi@tdtu.uz

Nadjimutdinova Nozima Shamsutdinovnaning 14.00.04 — Otorinolarinologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Hiiqildoqning xavfsiz o'simta va o'simtasimon kasalliklarini tashxislashni takomillashtirish va jarrohlik bilan davolashni optimallashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy. Toshkent davlat stomatologiya institutining rektorati majlislar zali.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Djurayev Jamolbek Abdulkaxarovichning 14.00.04 — Otorinolarinologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Polipoz rinosinusitlarning rivojlanishida klinik-genetik omillarning ahamiyati va davolash samaradorligini oshirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Toshkent davlat stomatologiya institutining rektorati majlislar zali.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Nishanbayeva Nilufar Yunusjonovnaning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya, 14.00.09 — Pediatriya (tibbiyot fanlari) ixtisosliklari bo'yicha "Atopik dermatit bilan kasallangan bolalarda oshqozon-ichak tizimidagi o'ziga xos o'zgarishlar, diagnostikasi va davolash usullari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-dekabr kuni soat 15:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/faks: (71) 233-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Rustamov Nazar Sarvar o'g'lining 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Xorazm viloyatining ekstremal tuproq-iqlim sharoitlariga mos istiqbolli "G.hirsutum L. turiga mansub navlar seleksiyasida hosildorligi yuqori bo'lgan seleksion ashyolar yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/27.02.2020. Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.
Majlislar zalida (Bosh bino, 3-qavat).
Tel/faks: (78) 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Fayzullayev Abdulla Xozidjon o'g'lining 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Yumshoq bug'doyning turli iqlim sharoitlarga moslanuvchanligi asosida yangi navlarini yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020. Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 1-uy.
Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.
Tel/faks: (78) 150-62-78, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mfil.ru

Yuldashev Anvar Rajapovichning 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Respublikaning shimoliy mintaqalariga mos, hosildor, tola sifati yuqori o'rta tolali g'o'za navini yaratish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020. Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 1-uy.
Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.
Tel/faks: (78) 150-62-78, 150-61-37; e-mail: paxtauz@mfil.ru

Sodiqov Davron Sodiq o'g'lining 06.02.04 — Ipakchilik ixtisosligi bo'yicha "Ipak qurtini yuqori namlikda boqish intensiv usulini ishlab chiqish va sun'iy dastalarning samaradorligini asoslash" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.36/30.01.2020. Qx.103.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 21-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100055, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Ipakchi ko'chasi, 1-uy.
Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti.
Tel/faks: (71) 249-83-56, 249-82-13; e-mail: uzniish@mail.ru

Maxmudov Alisherning 14.00.02 — Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Qalqonsimon, qalqonsimonoldi bezlari va diafiz suyak to'qimasining reparativ regeneratsiyasining o'zaro bog'liq struktur o'zgarishlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Oteliyev Jaksilik Begdullayevichning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Qoraqalpog'iston Respublikasi tuproq-iqlim sharoitida g'o'za navlarining maqbul sug'orish tartibini ishlab chiqish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYEAITI.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Baxramova Nilufar Nazarovnaning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "G'o'za-g'alla navbatlab ekish tizimida yumshoq bug'doyning don hosili va sifatini oshirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYEAITI.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Atoyeva Ruksora Odilovnaning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Turli ko'chat qalinligi, me'yori va muddatlarda "Zeroks" immunostimulyatorini g'o'zada qo'llashning mahsuldorlikka ta'siri" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYEAITI.
Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Kenjayev Laziz Razzakovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Jigar diffuz kasalliklari fonida kechuvchi mexanik, sariqlikni xirurgik davolash natijalarini yaxshilash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Ergasheva Nigora Nasriddinovnaning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Tug'ma ichak tutilishi bilan tug'ilgan chaqaloqlar moslashuvining xususiyatlari va ularning buzilishlarini korektsiyalash (tibbiyot fanlari) mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Islamova Maftuna Sharofiddinovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo) ixtisosligi bo'yicha "Umumta'lim maktablari o'quvchilarining kimyoviy bilimlar asosida kasbiy dunyoqarashini shakllantirish metodikasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021. Ped.82.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 16-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.
Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41.

Mirzaxmedova Dildura Marufonaning 14.00.09 — Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlarda respirator distress-sindromi va uning oqibatlarini rivojlanishining klinik-biokimyoviy jihatlari" (tibbiyot fanlari) mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Alimov Beruniy Sultonovichning 10.00.09 — Jurnalistika (filologiya fanlari) ixtisosligi bo'yicha "XXI asr media muhitida O'zbekiston imijini shakllantirishning nazariy-kognitiv aspektlari (AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya va O'zbekiston OAV materiallari misolida)" (filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 18-dekabr kuni 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9"b" mavzesi, 21-"a" uy.
Tel: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru

Aminova Dilnoza Xikmatilla qizining 10.00.09 — Jurnalistika (filologiya fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Internet jurnalistika kontekstida milliy madaniyatlarining o'zaro ta'siri tendensiyalari va muammolari (O'zbekiston, Buyuk Britaniya va Xitoy yetakchi internet nashrlari misolida)" (filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 18-dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9"b" mavzesi, 21-"a" uy.
Tel: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 7- va 8-varianti tahlili

ONA TILI

1. Quyidagilardan qaysi biri ko'makchi fe'l vazifasida kelsa, harakatning davomiyligini bildiradi?

A) chiqmoq B) yubormoq C) turmoq D) qo'ymoq

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan tilshunoslikning morfologiya bo'limiga oid bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

Ma'lumki, ko'makchi fe'llar ikki (yetakchi va ko'makchi) qismdan iborat bo'ladi. Bunda ko'makchi fe'l vazifasida kelgan so'z o'zining mustaqil ma'nosini yo'qotib yordamchi fe'lga aylanadi va qisman bo'lsa-da ma'noga ega bo'ladi.

A javobdagi chiqmoq fe'li harakatning tugallanligini bildiradi. B va D javobdagi yubormoq va qo'ymoq fe'llari harakatning tez va oson bajarilganini bildiradi. C javobdagi turmoq fe'li esa harakatning davomiyligini bildiradi.

To'g'ri javob: C.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 6-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2017.

2. Nisbiy so'zlar qatnashgan ergashgan qo'shma gap berilgan javobni aniqlang.

A) Bilingki, jim turib salomat bo'lish gapirib malomatga qolishdan afzal.

B) Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera biladi.

C) Shuni bilingki, kengga keng, torga tor dunyo.

D) Sen birodaringni qanchalik yaxshi ko'rsang, Tangri ham seni shunchalik yaxshi ko'radi.

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan qo'shma gaplar bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Yuqoridagi test topshirig'ini bajarishda nisbiy so'zlar bilan bog'liq nazariy ma'lumot muhim bo'lgani uchun aynan keltiramiz: "Ergash gap tarkibida qo'llanuvchi kim, nima, qancha, qanchalik, qanday, qayer kabi so'roq olmoshlari va bosh gap tarkibida unga javob bo'lib keluvchi shu, o'sha, shuncha, shunchalik, shunday kabi olmoshlar bir-biriga nisbatan qo'llanganligi, biri ikkinchisini taqozo etganligi uchun nisbiy so'zlar hisoblanadi. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi".

Bundan ko'rinadiki, to'g'ri javob sifatida D javobni qabul qilamiz, chunki birinchi gapdagi qanchalik so'ziga ikkinchi gapdagi shunchalik so'zi javob bo'lib kelyapti.

To'g'ri javob: D.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 9-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot uyi, Toshkent – 2019.

3. Ular besh kishidan iborat edi.

Ushbu gapning kesimi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) iborat edi
- B) Ular besh kishidan iborat edi
- C) besh kishidan iborat edi
- D) kishidan iborat edi

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan sintaksis bo'limi bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Yuqoridagi gapning kesimi bir qarashda iborat edi shakldek ko'rinadi, ammo bu gapni sintaktik tahlil qilishda kengaygan birikma bilan ifodalangan kesim haqidagi nazariy ma'lumotni yodga olish kerak. Bilamizki, bunday kesim murakkab kesim deyiladi. Bunda "Ular besh kishidan iborat edi" gapi bir ma'noviy butunlik bo'lganligi uchun kengaygan birikma bilan ifodalangan murakkab kesim deb qabul qilamiz.

To'g'ri javob: B.

Manba: M.Qodirov va boshqalar. 8-sinf ona tili darsligi. "Cho'lpon" nashriyot uyi, Toshkent – 2019.

4. Bir tovush o'zgarishi bilan ma'nosi butunlay farqlanadigan so'zlar miqdorini aniqlang.

fol, abzal, shox, daraxt, saxiy, juda, tanbur, borliq
A) to'rtta B) beshta C) oltita D) yettita
Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan leksikologiya bo'limi bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Bunda biz so'zlarni farqlaydigan jufti bilan aniqlab olishimiz kerak: fol – pol, shox – shoh, abzal – afzal, daraxt – karaxt, juda – judo, borliq – borlik.

To'g'ri javob: D.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 5-sinf ona tili darsligi (126-bet). G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2020.

5. Traktor va mashinalar yelday uchadi.

Ushbu gapda nutqning mantiqiylik sifatini buzgan so'z qaysi?

A) mashina B) uchadi C) traktor D) yelday

Ushbu test topshirig'i abituriyentlardan madaniy nutq va uslubshunoslik bo'limi bilan bog'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishni talab etadi.

Yuqoridagi gapni mantiqiy deb bo'lmaydi, chunki unda mantiqiy-mazmunli ziddiyat bor. Bunda mashina mantiqan juda tez, ya'ni yelday uchishi mumkin, ammo traktor bu xususiyatga ega emas. Demak, jumlada mantiqiylik sifatining buzilishi traktor so'zi bilan bog'liq.

To'g'ri javob: C.

Manba: N. M. Mahmudov va boshqalar. 11-sinf ona tili darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent – 2018.

G'anisher HAQNAZAROV,
Xatirchi tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA

1. Hoshimjon bitta ikki xonali sonni ikkinchisidan ayirdi, keyin esa ikkita katakni bo'yab qo'ydi. Bo'yalgan kataklardagi sonlar ko'paytmasining ikkilanganini toping.

A) 30 B) 80 C) 40 D) 28

Yechilishi: "Oxirgi raqami 3 bo'lgan sondan qanday sonni ayirsak, oxirgi raqami 5 bo'ladi?" degan savolga javob berish ikkinchi sonning 28 ekanini aniqlab beradi. Xuddi shunday "qanday sondan 28 ni ayirsak, 25 bo'ladi?" degan savolga javob, birinchi sonning 53 ekanini bildiradi. Demak bo'yalgan raqamlar 5 va 8. Ularning ko'paytmasi esa 40 ga teng.

To'g'ri javob: C.

2. Yozuvda 5 raqami faqat bitta bo'lgan nechta uch xonali son bor?

A) 225 B) 123 C) 729 D) 243

Yechilishi: Agar biz uch xonali sonni $\overline{abc}$ ko'rinishida yozadigan bo'lsak, 5 raqami bir marta ishtirok etadigan uch xonali sonlar: $5bc$, $a5c$ ko'rinishda bo'ladi.

1) $5bc$, $a5c$ soni uchun b ning o'rniga 9 ta, c ning o'rniga 9 ta, jami $9 \cdot 9 = 81$ ta.

2) $a5c$ soni uchun a ning o'rniga 8 ta, c ning o'rniga 9 ta, jami $8 \cdot 9 = 72$ ta.

3) $ab5$ soni uchun a ning o'rniga 8 ta, c ning o'rniga 9 ta, jami $8 \cdot 9 = 72$ ta son tuzish mumkin.

Jami: $99 + 72 + 72 = 243$ ta son tuzish mumkin.

To'g'ri javob: D.

3. 727374 soni nechta xonali son?

A) 181 B) 153 C) 133 D) 135

Yechilishi: Bu sonimizda bir xonali sonlar 5 ta, ikki xonali sonlar esa $74 - 9 = 65$ ta. Demak, jami: $5 \cdot 1 + 65 \cdot 2 = 5 + 130 = 135$ ta raqam bor, shuning uchun bu son 135 xonali son.

To'g'ri javob: D.

4. $240 = \bigcirc \cdot 5 \cdot \triangle \cdot \blacksquare$ Shu ma'lumotlar asosida $\bigcirc$, $\triangle$, $\blacksquare$ larning yig'indisini toping.

A) 5 B) 4 C) 3 D) 6

Yechilishi: Agar biz 240 ni tub ko'paytuvchiga ajratadigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$240 = 2^4 \cdot 5^1 \cdot 3^1$ ko'rinishda bo'ladi, demak, $\bigcirc$, $\triangle$, $\blacksquare$ lar mos ravishda 2, 1, 1 ga teng

bo'ladi va ularning yig'indisi 4 ga teng.

To'g'ri javob: B.

5. 59 ni bo'lganda, qoldiq 9 chiqadigan barcha natural sonlar yig'indisini toping.

A) 50 B) 55 C) 60 D) 85

Yechilishi: Avvalo, 59 dan qoldiq 9 ni ayirib tashlasak 50 hosil bo'ladi. Endi 50 bo'linadigan 9 dan katta sonlarni qaraydigan bo'lsak, bular: 10, 25 va 50. Ularning yig'indisi esa 85 ga teng.

To'g'ri javob: D.

Manba: M.A.Mirzaahmedov, A.A.Rahimqoriyev, Sh.N.Ismailov, M.A.To'xtaxodjayeva. Matematika, umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-, 6-sinfi uchun darsliklari. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2017.

Keyingi sonda "Kombinatorika va ehtimollar nazariyasi" mavzusiga oid testlar beriladi, bunda testlar 7-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi
32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

1. Jaloliddin Manguberdini "butun musulmonlarning sultoni" deya e'tirof etgan shaxsni toping.

A) Chingizxon B) Taynol no'yon
C) Shamsuddin Eltutmish D) Nosir

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid. Jaloliddin Manguberdining Shatra hukmdori ustidan qozonilgan g'alabasidan keyin tevarak-atrofdagi yangi kuchlar Jaloliddinga kelib qo'shiladilar. Dehli sultoni Shamsuddin Eltutmish Xorazmshohga bunday maktub yo'llaydi: "Sening ortingda islomning dushmani turgani sir emas. Sen butun musulmonlarning sultonisan. Men bunday paytda senga qarshi bo'lishni istamayman. Taqdir qo'lida senga qarshi qurol bo'lishni xohlamayman. Men kabi odam seningdek insonga qarshi qilich ko'tarishi kechirilmas holdir!"

To'g'ri javob: C.

Manba: A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2017 (74-bet).

2. XIX asrda "dorukash" deb kimlarga aytilgan?

A) dori-darmon tayyorlovchi va sotuvchilarga
B) porox tayyorlovchilarga
C) sharob savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogarlarga
D) cho'yandan asboblari quyuvchi ustalarga
Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davriga oid. Buxoro

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 7- va 8-varianti tahlili

amirligining Qarshi shahrida porox tayyorlangan. Uni ishlab chiqaruvchi hunarmandlar dorukash deb atalgan.

To'g'ri javob: B.

Manba: U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2019 (64-bet).

3. Abu Mansur al-Moturudiyan bizga nechta asar saqlanib qolgan?

- A) 2 ta B) 4 ta
C) 8 ta D) 10 ta

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid. Al-Moturudiyaning “Kitob at-Tavhid” (“Allohning birligi”) va “Ta'vilot ahl as-sunna” (“Sunniylik an'analar sharhi”) nomli asarlariga saqlanib qolgan.

To'g'ri javob: A.

Manba: A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent – 2017 (102-bet).

4. XX asr o'zbek kinematografiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkorlarni toping.

- A) Yahyo G'ulomov B) Rahim Pirmuhammedov
C) Mannon Uyg'ur D) Abror Hidoyatov

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining 1917–1991-yillar davriga oid. XX asrda Komil Yormatov, Nabi G'aniyev, Rahim Pirmuhammedov singari kinematografiya arboblari yetishib chiqqan.

To'g'ri javob: B.

Manba: Q.Rajabov, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 10-sinf darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent – 2017 (92-bet).

quyidagi qaysi ijodkorning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha tadbirlar o'tkazilgan va uning nomi bilan atalgan markaz, ijod maktabi ochildi?

- A) Erkin Vohidov B) Is'hoqxon Ibrat
C) Muhammad Yusuf D) Abdulla Oripov

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining mustaqillik davriga oid. 2017-2018-yillarda Farg'onada Erkin Vohidov (A) Namangan viloyatida Is'hoqxon Ibrat (B), Andijonda Muhammad Yusuf (C), Qashqadaryoda Abdulla Oripov xotirasini abadiylashtirish bo'yicha yirik tadbirlar o'tkazilgan. Ularning nomi bilan atalgan markazlar, ijod maktablari tashkil etilgan.

To'g'ri javob: D.

Manba: N.Jo'rayev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2018 (96-, 97-betlar).

Jalol BOLTAYEV,

Urganch davlat universiteti magistranti

Yaxshilar yodi

Shaxsiyati buyuk olim

Bu qadim yurtimiz mana necha asrlarki ko'plab olim-u fuzalolarga vatan bo'lib, dunyo tamadduniga o'ziga xos ijobiy ta'sir o'tkazib kelmoqda. Barchamiz Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Al-Farg'oniyy, Ibn Sino kabi dunyoviy ilmda yuksak cho'qqilarni zabt etgan buyuk olimlar, tabarruk Islom dinimizning rivojiga ulkan hissa qo'shgan imom Moturudiyy, imom Buxoriy, imom Termiziyy, Burhoniddin Marg'iloniy kabi ulamolimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Yosh avlodga ularni namuna qilib ko'rsatamiz, yutuqlari bilan birga, shaxsiyatlarini ham ulug' bo'lganini e'tirof etamiz. Buyuk ajdodlarimizning munosib davomchilari, zamondosh olimlarimizni esa olamdan o'tgandan keyingina e'tirof etib, ular haqida eslab qolamiz. Bu ham davomiy jarayon emas. To'g'ri, kundalik hayotda doimiy ravishda eslab, ularning hayot yo'lini targ'ib qila olmaymiz. Lekin, nazarimda, hozirgidan ko'proq harakatlarni amalga oshira olamiz.

Ba'zida xos davrlarda o'z sohasida katta yutuqlarga erishgan olimlar haqida gaplashib qolganimizda, ularning yutuqlarini eslash bilan birga, shaxsiyati haqida ham to'xtalamiz. Insoniylik xislatlarini eslaganimiz sari ularning haybati ortib boraveradi. Bandachilik sabab hayot bo'lgan davrlarda yonlarida yurib ham sezmaymiz — buyuk insoniy xislatlari bizni hayratga sola boshlaydi. O'zimizga bir qarab naqadar maydalashib borayotganimizni tushungandek bo'lamiz. Xuddi biznikidek kundalik turmush tashvishlari, faoliyati davomida duch kelingan turli haqsizliklar, ba'zida amal, ba'zida obro' talashib qilingan “o'yinlar” bu ustozlarni sindira olmagan, shaxsiyatini butun saqlab qolganlarini to'qlinlab eslaymiz.

Bugun yozmoqchi bo'lganim OLIM (haqiqatan ham bosh harflar bilan yozishga arziydigan) akademik **Mahmud Salohiddinov** to'g'risidadir. Ustoz haqida ko'plab maqolalar yozilgan, hujjatli filmlar olingan, lekin bu mabalar uning shaxsiyatini to'la ochib berolmagandek tuyuladi. O'zim ham ushbu bitigimda bu ishni amalga oshira olmasligimni bilaman. Lekin toma-toma ko'l bo'lur, deyishganidek

men eslamochi bo'lgan holatlar bir qirani ochib bersa ham do'ppimni osmonga otishim kerak.

Dastlab e'tiboringizni qaratmoqchi bo'lgan ustozning xislati qarama-qarshilik(konflikt)ni yoqtirmasligi, uning ortidan keladigan turli intrikalarga aralashib qolishni istamasligidir. O'zim shaxsan guvoh bo'lgan bir nechta holat bor. Mahmud domla o'sha holatlarda donolik bilan o'zi uchun ma'qul topgan qarorni qabul qilib, janjalni chetlab o'tgandi. Keyinchalik, hatto o'sha tortishuvlar qatnashchilari ham ustozning tanlovi qanchalik to'g'ri bo'lganini ta'kidlaganlar. Ustoz bilan hadi sig'ib tortishadiganlar o'zi kamchilik bo'lgan, lekin doim ustoz yon berardi, alaloqibat baribir haq bo'lib chiqishlarini ko'pchiligimiz oldindan bilardik. Qarama-qarshilikni yoqtirmaydigan boshqa ziyolilar ham ko'p edi, ammo mustaqillikning ilk yillari ayrimlari zamonasozlik yo'lidan ketishdi. Mahmud Salohiddinov o'z prinsiplariga sodiq qolib, o'zi uchun muhim deb hisoblagan ilm yo'lida davom etdi. O'zbekiston Milliy universitetida talabalarga dars berish bilan birga V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida ilmiy loyihalarga bosh bo'lib keldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning akademiklarga bo'lgan boshqacha iliy munosabati, ko'p yillik mehnatlarining yanada qadrlanishi ustozga yanada kuch bag'ishlagani, katta-katta rejalar tuza boshlaganini eshitganimizda bizning ham ruhimiz ko'tarilgandi. Afsuski, 2018-yili ustoz olamdan o'tib qoldi.

Domla umri davomida fan-ta'limni tashkil etish va rivojlantirishda faol bo'ldi. Ilmiy tekshirish institutida direk-



tor o'rinbosarligidan tortib to Fanlar akademiyasining prezidentligigacha bo'lgan lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi. Administrativ faoliyatining har qaysi bosqichida ham universitetda talabalarga dars berishdan uzilmagan. Oliy ta'lim vazirining qo'lida bir dasta kitob bilan auditoriyaga dars berishga kirib ketayotganligini hozir tasavvur qilish qiyin, lekin ilgari rahbarlar uchun bu oddiy hol edi. Ular tizimdagi muammolardan boxabar bo'lish uchun ham tizim ichida yurishni to'g'ri deb bilganlar. Beixtiyor hozirgi zamonamizning ta'lim sohasidagi rahbarlari bilan qiyoslashga tushasan odam. Xalq ta'limida bevosita maktabda dars bermagan, shu sohaning baland-pastini quyidan boshlab o'z tanasida his qilmaganlarning vazir bo'lishi aksariyat hollarda islohotlarning eng muhim nuqtalarida xato qaror chiqarilishiga sabab bo'lmoqda degan fikrdaman. Har qanday tizimda ham iqtisodiy omil muhim rol o'ynaydi, boshqaruv mahorati zarurligini rad etmayman, lekin oxirgi qarorni beruvchi shaxs, albatta, o'sha sohaning odami bo'lishi kerakligi yillar davomida isbotlangan fakt. Prezident pastga tushib ishlash kerak deganda hududlarga borib, muammolarni 1-2 kunda o'rganib kelishni emas, sohaning ichida yurib, chiqarilayotgan qaror-farmonlarning ijro mexanizmi quyi tizimda qanday ishlayotganini, samara ko'rsatmayotgan qarorlardan voz kechib, yaqin va uzoq kelajak uchun strategiyani shoshmasdan tuzishni nazarda tutgan, deb hisoblayman. Ba'zida yuqoridan tushayot-

gan topshiriqlarga nazar solib, tepadagilar pastdagi sharoitlar haqida umuman tasavvuri yo'q, degan xulosaga kelasan. Masalan, mamlakatimizning barcha maktablari uchun majburiy joriy etilgan kundalik.com tizimi qishloq joylardagi o'qituvchilar uchun qanchalar qiyinchilik tug'dirayotganini ko'pchiligimiz bilib turibmiz, lekin rahbariyat qaysarlik bilan muammoning ko'lamini tan olmay turibdi, samarali chora ko'rmayapti. Mana shunday holatlarda ustoz Mahmud Salohiddinovdek insonlarni rahbarlikda ko'rgisi keladi odamning.

Umri o'xirigacha intizomli xodim sifatida institutga kelgan ustozning zinarlardan qiynalib chiqayotganini ko'rib “bu kishiga shunday ulug' yoshda zarurmi?” kabi allanechuk xayollarga borgan odamlarga aynan shunday qat'iyat sabab biz shogirdlar ustozdan ko'p narsani o'rganib qolganimizni, shunday ulug' yoshda ham ilmiy seminarlarda ma'ruzachining ilmiy natijalari orasidan biz ilg'ay olmaydigan nuqtalarni ko'ra olgan ustozga qoyil qolib, havas qilib, kelajakda bizga ham shunday baxt nasib qilishini niyat qilganimizni yetkazib qo'ymoqchiman. Payti kelib, o'quv qo'llanma, monografiya yozishga o'tir ekanmiz, Mahmud Salohiddinovning “Integral tenglamalar”, “Matematik fizika tenglamalari” darsliklarining qo'lyozmalari ko'z oldimga keladi. Shunday ulug' yoshdagi akademik erinmay har bir formula, hisob-kitoblarni batafsil qo'lida yozib chiqqanlari ustozdagi katta hafsala, mas'uliyatni ko'rsatadi. Mana shunday zahmatli mehnatlarining natijasi o'laroq, universitetimiz talabalari zamonaviy matematikaning muhim bo'limlarini o'zbek tilida o'rganishmoqda.

Xulosa shuki, ustozlarning hayotligida e'tirof etishdan, ularning insoniylik xislatlarini, ilmiy natijalarini, yutuqlarini targ'ib qilishdan charchamaylik. Olamdan o'tganlarining xotirasini yod etib, ularning sharaflari yo'llarini yosh avlodga tanishtirib borishda bardavom bo'laylik.

Erkinjon KARIMOV,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
fizika-matematika fanlari doktori

Boymirzayeva Dilbar Dmitriyevnaning 19.00.05 — Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosliklari bo'yicha "Oliy o'quv yurtlari talabalarida frustratsiya namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi (psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetining 411-xonasida o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Razakova Rayxan Saylaubekovnaning 19.00.05 — Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosliklari bo'yicha "Qizlar oilaviy hayotga adaptatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi (psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 28-dekabr kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universiteti, ijtimoiy fanlar fakultetining 411-xonasida o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Djumaniyazova Muxayya Xusinovnaning 19.00.05 — Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosliklari bo'yicha "Talabalar diniy dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi (psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetining 411-xonasida o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Murodov Alijon Salimovichning 14.00.27 — Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Yumshoq to'qimalar yiringli-destruktiv kasalliklarini davolashning samarali usullarini ishlab chiqish va tatbiq etish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-dekabr kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy. Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Qadirov Quvondiq Ayitbayevichning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida oliy ta'lim muassasalari g'oyaviy tarbiya tizimini modernizatsiyalash" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-dekabr kuni soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Chirchiq davlat pedagogika instituti. Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@uamail.uz

Bayazitov Kamil Faritovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarligini boshqarishni takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Chirchiq davlat pedagogika instituti. Tel/faks: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@uamail.uz

Abduraxmanova Saida Sabidovnaning 02.00.03 — Organik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Fenilatsetilen va ayrim aldegidlar asosida atsetilen spirtlari katalitik sintezi texnologiyasi" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel/faks: (98) 70-716-68-05, 70-716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@uamail.uz

Sadikova Dildora Baxramjanovnaning 02.00.06 — Yuqori molekulyar birikmalar ixtisosligi bo'yicha "Tabiiy polimerlarning metall komplekslarining olinishi va xossalari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.09.2020.K.82.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel/faks: (98) 70-716-68-05, 70-716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@uamail.uz

Mirzakabilov Bekbolat Safarovichning 05.10.02 — Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha "Gidrotekhnika inshootlari avariya bilan bog'liq falokatli suv toshqinlari yuzaga kelganda aholi va hududlarni muhofaza qilish usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.40/30.12.2020.T.129.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100102, Toshkent shahri, Yangi hayot tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy. Tel/faks: (71) 258-35-33, 258-56-57; e-mail: info@akademiya.fv.uz

Sabirov Erkaboy Erkabayevichning 05.10.02 — Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida samarador suyuq holatdagi yong'in o'chirish tarkiblarini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.40/30.12.2020.T. 129.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100102, Toshkent shahri, Yangi hayot tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy. Tel/faks: (71) 258-35-33; e-mail: info@akademiya.fv.uz

Alimsaidova Sayyora Amideyevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili) ixtisosligi bo'yicha "Tarixiy-adabiy xarakterga ega bo'lgan o'lkashunoslikka oid matnlar asosida umumta'lim maktablari o'quvchilarida sotsiologik kompetensiyani shakllantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-dekabr kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 "a" mavzesi, 21-"a" uy. Tel: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru

Abdullayeva Rozanna Mirzatullayevnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili) ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga ruscha terminologiyani o'qitishning tarqoq texnologiyalari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-dekabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 "a" mavzesi, 21-"a" uy. Tel: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: www.uzswlu_info@mail.ru

Yo'ldoshov Sherzod Abdullayevichning 00.00.05 — Sellyuloza va sellyuloza qog'oz ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi (kimyo fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Quy qovush-qoql karboksimetilsellyuloza sintezi: tarkibi, tuzilishi va xossalari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"b" uy. Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

Masharipova Guliston Omonturdiyevnaning 09.00.05 — Milliy g'oya va targ'ibot texnologiyalari ixtisosligi bo'yicha "Toshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirish tendensiyalari" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 24-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetining 411-xonasida o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Shodmonqulova Muborak Maxamatqulovnaning 09.00.06 — G'oyalar tarixi va metodologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Liberalizm g'oyalarining yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarga ta'siri" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetining 411-xonasida o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Sultonov Ilxom Islomovichning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Revmatoid artrida asosiy terapevtik agentlar farmakologik samarasining genetik prediktorlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy. Tel/faks: (71) 233-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Maxmudov Sardor Djalilovichning 02.00.10 — Bioorganik kimyo (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Prunus domestica L. va Rumex confertus o'simliklaridan biologik faol moddalarni ajratish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy. Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-74-03, 262-52-65, 262-73-48, 120-64-75; e-mail: plant-inst@icps.org.uz, ixrv@mail.ru

Axmedov Ergash Kuldashovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Missionerlik harakatining milliy-ma'naviy taraqqiyotga tahdidi va uning oldini olish omillari" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 25-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakultetining 511-xonasida o'tkaziladi. Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi, 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosliklari bo'yicha "Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tafakkur tarzini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Red.28.01 raqamli ilmiy kengashi asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Mazi: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Yusupov Zafarjon Zoirovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga yosh gandalbolchilarni saralash texnologiyasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Red.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Maxmadiyeva Charosxon Erkinovning 02.00.03 — Organik kimyo ixtisosligi bo'yicha "Almashingan dezoksipeptidlar va ularning kislorodli analoglari sintezi hamda reaksiyalari" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'simlik moddalar kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K.T. 104.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-74-03, 262-52-65, 262-73-48, 120 64 75; e-mail: plant-inst@icps.org.uz, ixrv@nail.ru

Allanazarova Luyza Reipnazarovna 06.01.05 — Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Maxsar va moyli zig'ir jahon genofondidan foydalanish asosida seleksiya uchun birlamchi manbalar ajratib olish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chilik va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/27.02.2020.Qx.42.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 1-uy, Paxta seleksiyasi, urug'chilik va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.
Tel/faks: (71) 150-61-37; e-mail: tuag-info@edu.uz

Nurmanov Sarvar Ruziboyevichning 05.09.03 — Issiqlik ta'minoti. Ventilatsiya, konditsionerlash. Gaz ta'minoti va yoritish (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Issiqlik ta'minoti tizimlari samaradorligini oshirish uchun dispetcherlik grafignini tuzish usullarini takomillashtirish va gidravlik barqarorlikni ta'minlash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yilning 21-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140147, Samarqand shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy.
Tel/faks: (66) 237-18-47, 237-19-53; e-mail: http://samgasi_atm@edu.uz

Xomidov Xayrillo Xudoyorovichning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik ixtisosligi bo'yicha "O'zbek qissa va romanlarining turkcha tarjimalarida milliylik, badiiylik va lisoniy adekvatlik masalalari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Ziyamuxamedov Jasur Tashpulatovichning 10.00.05 — Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Pu Sungling nasri poetikasi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.Tar.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 16-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru

Xudayberganov Ravshonbek Xudaybergan o'g'lining 09.00.01 — Ontologiya, gnozeologiya va mantiq ixtisosligi bo'yicha "Til va kommunikatsiya mutanosibligining falsafiy-metodologik jihatlarini" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 1000174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz

Shafiyev Rustam Umarovichning 04.00.13 — Neft va gaz konlarini o'zlashtirish hamda ishlatish ixtisosligi bo'yicha "Neft konlari texnologiyalarini takomillashtirishga doir metodologik asoslar" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi "O'zlitneftgaz" AJ huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.23/25.08.2021.T.136.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-dekabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100029, Toshkent shahri, Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy, "O'zlitneftgaz" AJ binosi.
Tel/faks: (71) 280-67-00, 256-66-48.

Raupova Munira Murodovna 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy ongini rivojlantirish texnologiyasi" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 25-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy.
Tel/faks: (66) 239-12-29, 239-17-14; e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz

Alimqulova Komila Zokirovna 15.00.02 — Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya ixtisosligi bo'yicha "Ko'p tarkibli immunomodulyator xususiyatiga ega o'simlik kompozitsiyasi va uning asosidagi dori vositasini standartlash" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

Sharipov San'at Shuhrat o'g'lining 04.00.14 — Foydali qazilmalarni boyitish ixtisosligi (texnika fanlari) bo'yicha "Oltin saqlagan flotokonsentratlarni oksidlashning fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilish" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/04.06.2021.T.06.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, Mahmud Torobiy ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com

Rajabboyev Ibdulla Murodullayevichning 04.00.14 — Foydali qazilmalarni boyitish ixtisosligi bo'yicha "Uchquduq uran chiqindilarini qayta ishlashning fizik-kimyoviy va texnologik asoslari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/04.06.2021.T.06.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-dekabr soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, Mahmud Torobiy ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com

Jo'rayev Sirojiddin Turdiqulovichning 03.00.09 — Umumiy genetika ixtisosligi bo'yicha "G'o'zaning introgressiv duragay va tizmlarning O'zbekistondagi har xil tuproq-iqlim sharoitlarida bo'lgan adaptiv potentsialdan foydalanish" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zRFA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 20-dekabr soat 14:00 dagi majlislar zalida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqoriyuz mahallasi, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.
Tel/faks: (71) 264-22-23, 264-23-90, e-mail: igebr@academy.uz

Kuvandikov Ilyasning 09.00.05 — Milliy g'oya va targ'ibot texnologiyalari ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston yoshlari dunyoqarashini boyitishda milliy g'oyaning roli" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 23-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn(masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 274-maktab tomonidan Asatova Zulfiya Xikmatullayevna nomiga 1996-yilda 19-iyun berilgan № 014729 raqamli SHAHODATNOMA yo'qolgan sababli
BEKOR QILINADI.

Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti jamoasi institutning "Tabiiy va gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi Abror Hakimovga va uning yaqinlariga onasi **Sofiya AMINOVANing** vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektorati va kasaba uyushmasi qo'mitasi "Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon" kafedrasi professori Abdulla Ulug'ovga onasi **Qurbonoy ULUG'OVANing** vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Sevimli "Marifat"
gazetangizga
obuna bo'ling!



"MARIFAT" GAZETASIGA 2022-YIL UCHUN OBUNA BO'LIH TARTIBI:

☑ Endi tahririyatimizga murojaat qilib, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan obuna bo'lishingiz mumkin.

Telefonlar: (71) 233-56-36,

(71) 233-42-92,

(71) 233-85-09.

Bunda sizga telegram yoki elektron pochta orqali obuna blankasi jo'natiladi.

☑ 149 indeksi orqali imtiyozli, arzonlashtirilgan narxda obuna rasmiylashtirishingiz mumkin. Faqat bunda to'liq bir yilga obuna bo'lishingiz kerak bo'ladi. Bu indeks orqali bir yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm

☑ 150 indeksi orqali 1 yildan kam mudatga ham (3 oy, 6 oy) obuna bo'lishingiz mumkin. Bunda 1 yillik obuna narxi Toshkent shahri uchun **447 005**, Viloyatlar uchun **505 310** so'm.

☑ Klik va Payme ilovalari orqali ham onlayn tarzda obuna bo'lish imkoniyati bor. Ilova orqali obuna bo'lsangiz yuqorida ko'rsatilgan narxdagi summani (Toshkent shahri uchun **370 760** so'm. Viloyatlar uchun **419 120** so'm) kiritasiz. Obuna bo'lganingizdan so'ng **71 233-56-36**, **71 233-42-92**, **71 233-85-09** telefon raqamlari orqali tahririyat bilan bog'lanishni unutmang.

Bizga to'lov qilinganligi haqida fotoma'lumot va gazetani yetkazib berish manzilini yuborishingiz kerak.

Uyg'oq fikr ovozi...



Shaharlardan ancha olisda, dasht-u dalalar qo'ynida joylashgan ona qishlog'imga borib, maktabda karate-do bo'yicha to'garak ochilganidan xabar topdim. Murabbiy viloyat markazidan kelib, ijarada yashar, haftada bir marta o'z uyiga borib kelar ekan.

Ko'p o'tmay qishloq o'quvchilari-ning viloyat birinchiligida g'olib bo'lganini eshitdim. Keyin esa, murabbiyning ketib qolganini.

Mashg'ulot uchun qilingan to'lovning kamligi hamda qatnab ishlash mashaqqati murabbiyni chorasiz qoldirdi. Undan avval ingliz tilidan dars berishga yuborilgan o'qituvchi ham shu muammolar sabab ketib qolgan edi...

Hozir qishlog'imizda bunaqa to'garak yo'q. O'quvchilar mol boqish, ota-onasiga dastyorlik qilish, to'ylarda to'polon qilib, janjal uyushtirish bilan band. Hatto bir-ikkita jinoiy javobgarlikka ham tortilib ulgurdi. Qanchalik ayanchli bo'lmasin, bor haqiqat shu. O'yga toladi kishi...

Farzandlar kelajagi uchun o'sha ustozlarni olib qolish, uy-joy bilan ta'minlash, moddiy qo'llab-quvvatlashning iloji yo'qmidi, davlat yordamini kutmasdan



elning o'zi bu muammolarini hal etolmasmidi?

Albatta, hal qilardi. Faqat bunga xohish va teran aql lozim. Farzand ilmi, hunarli, quvvatli bo'lishi o'z kelajagining kafolati ekanligini anglay oladigan darajadagi aql.

Afsuski, biz buni istamaymiz,

chunki aqlimiz zaif, xudbin to'dadan

farqimiz yo'q. Boqimandalik kayfiyatiga shu qadar berilganmizki, farzandimizning ilmi, hunarli, quvvatli bo'lishi uchun mablag'ni o'zgalardan kutamiz. Ha, davlat bersin, deymiz...

Holbuki, to'y uchun bor-budimizni sarflashdan orqilamaymiz, aslida bu or qilish lozim bo'lgan ish bo'lsa ham. Qayerdadir masjid qurilayotgani, shunga falon so'mdan yig'ilayotganini eshitganda boshqalardan ajrab qolmaslik, "o'sha masjid qurilishiga biz ham falon so'm ehson qilganmiz", deb kerilish uchun hotamtoylik qilamiz. Holbuki, farzandimiz kitobga muhtoj...

Qurilayotgan masjidning olisligi vajidan na o'zimiz, na farzandimiz bormasligini, yig'ilayotgan mablag'ning yarmidan ko'pi talon-toroj bo'lishini bilib tursak ham shunday

qilamiz. "Oxiratni o'ylash kerak", degan gap bizga tasalli. Sog'lom fikrimiz yo'qki, nido qilib: "Oxiratda musulmonlikni da'vo qilgan bir johil sifatida o'zingni topmaslik, bu dunyoda o'zgalar oyog'i ostida toptalmaslik, shunchaki bir iste'molchi qul kabi ularga qaram bo'lmaslik uchun farzandlarini ilmi qilishga jidd-u jahd et", desa.

Masjid yoki ko'prik qurgan, xayriya to'yi qilib berganlarni ko'p eshitamiz. Olloh ularni bu amallarida bardavom qilsin, e'tirozimiz yo'q. Lekin o'z hamqishloqlarining bolalariga dars berish uchun kelgan ustoz yoki murabbiyga uy qurib berganlar haqida nega eshitmaymiz?

Javobni o'z vijdoningizga bering!

Hushyor BOTIROV



Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4960. Tiraji 6986. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqir qilinmaydi va mulkifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondigov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.